

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
T A R I X F A K U L T E T I

«Himoyaga ruxsat etilsin»
Fakultet dekani _____
Tfn, dotsent V.T.Ishquvatov
2014 yil «___» _____

5140600 «Tarix» ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi
Boyqulov Zokir Tavashaarovichning
“Osiyoning Anushtegin -Xorazmshohlar davridagi iqtisodiy- siyosiy ahvoli”
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Tarix» kafedrası dotsenti, tarix
fanlari nomzodi N.Egamberdieva

«Himoyaga tavsiya etilsin»
«Tarix» kafedrası mudiri
_____ **t.f.n., dots Z.A.Ilhomov**
2014 y. «___» _____

TOSHKENT – 2014

Mundarija:

Kirish.....	3
I-BOB Anushtegin –Xorazmshohlar davridagi siyosiy vaziyat	
I.1. Anushtegin–Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi	7
I.2. Davlatning boshqaruv tizimi.....	11
I.3. Xorazmshohlar va Qoraxitoylar o’rtasidagi munosabatlar.....	17
II-BOB XIII asrda Markaziy Osiyodagi iqtisodiy ahvol	
II.1. Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli	21
II.2. Xorazmshohlar davlati inqrozi.....	26
II.3. Mug’ullar istilosining Markaziy Osiyo iqtisodiy hayotiga ta’siri	31
II.4. Mavzu yuzasidan bir soatlik dars ishlanmasi.....	37
Tayanch so’zlar lug’ati.....	43
Xulosa.....	45
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	47
Ilova.....	49

Kirish

Mavzuning dolzarbligi :

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi yillarida xalqimizning manaviy merosining asosi bo'lgan o'tmish tarix e'tibor kuchayib, uning har tomonlama, chuqur va haqqoniy yoritilishiga e'tibor kuchaydi. Yurtboshimiz ta'kidlagandek, tarix "...millatning haqiqiy tarbiyasiga aylanib bormoqda, buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib yangi fuqorolik ongini shakillantirmoqda".¹

XI asrning so'nggi choragi va XII asrning birinchi yarmida Xorazmshohlar sulolasi Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatgan siyosiy kuchga aylanib, o'zining yirik davlatini shakllantira oldi. Bu davrda Markaziy Osiyoda katta kuchga ega bo'lgan Qoraxoniylar davlati Saljuqiylar davlati bilan ziddiyatlari natijasida kuchsizlana boshlagan edi. Shuningdek, qoraxitoylarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi natijasida qoraxoniylar va saljuqiylarning tarix sahnasidan ketishlari Xorazmning mustaqil davlatga aylanish uchun zamin yaratilgan. Bu davrda Xorazmda hukronlik qilayotgan Anushteginlar Xorazmshohlar davlatiga asos soldilar. Anushteginlar davrida (1097-1231 y.y) Markaziy Osiyoda iqtisodiy-ciyosiy va madaniy yuksalish davri bo'ldi. O'ziga xos davlat boshqaruv tizimi, ma'muriy-hududiy tuzilmaga ega mazkur saltanat, bu borada, o'zidan oldingi barcha musulmon davlatlarining tajribasiga suyandi. IX asrda boshlangan Renessans, ya'ni Uyg'onish davrida Xorazmshohlar sulolasi o'zining yuksalishiga erishdi. Xorazmshohlar davlati tarkibiga kirgan Samarqand, Buxoro, Mazondaron, G'azna, Xuroson, Seyiston, Gurjuston, Kashmir kabi boshqa ko'pgina shaxarlarda iqtisodiy yuksalish kuzatilgan.

Xorazmshohlar davlati hozirgi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Xitoyning ozgina qismi, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Eron, Iroq, Turkiya, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Dog'iston respublikalari hududlarini birlashtirgan ulkan imperiya bo'lgan. Unga 450 yaqin shaxar va viloyatlar kirgan. XIII asr boshida Gurganj yirik siyosiy boshqarish, madaniy, hunarmandchilik va savdo markazi bo'lgan.

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т., 1998, 16-бет.

Bu imperiya Sulton Muxammad Xorazmshoh va uning onasi Turkon xotin o'rtasidagi ziddiyatlar natijasida inqrozga uchradi. Bu esa, Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullarning bu xududni bosib olishiga imkon yaratdi.

Xorazmshohlar davlati o'zining bir asrdan ko'proq hukmronlik davrida Markaziy Osiyo xalqlari tarixida o'chmas iz qoldirdi. Birgina mo'g'ullarga qarshi kurashgan Jaloliddin Manguberding jasorati hanuzgacha avlodlar uchun o'rnak bo'lib kelmoqda. Xorazmshohlar davlatining Markaziy Osiyoda tutgan o'rnini yoritib berish, taxlil etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biriga aylangan.

Mavzuning o'rganilish darajasi

Anushtegin -Xorazmshohlar davlati tarixini o'rganilish darajasini 4 bosqichga bo'lish mumkin.

1-bosqich arab manbalarida yoritilishi: Bunda Xorazmshohlar davrida yaratilgan manbalar va undan keyingi davrlarda yaratilgan manbalar kiradi. Mazkur manbalarda Xorazmshohlar davlatining iqtisodiy, siyosiy tuzumi, madaniy rivojlanishi, hukmdorlar tarixi, ayniqsa, Sulton Jaloliddin Manguberdi faoliyati keng yoritilgan¹.

2 bosqich -xorijiy olimlar tomonidan o'rganilishi. Xorazmshohlar davlati tarixi xorijiy olimlar tomonidan ham keng o'rganilgan. Mazkur masala yuzasidan O.Masalieva tomonidan tadqiqot ishi olib borilgan².

Oydin Tonariyning «Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri»³ nomli asarida Xorazmshohlar davlati va mug'ullar bilan munosabati yoritib berilgan.

3 bosqich -sobiq sho'rolar davrida ham Xorazmshohlar davlati tarixi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Bu davrda yaratilgan asarlarda Jaloliddin Manguberding jasorati tilga olingan bo'lsada, Muhammad Xorazmshoh siyosati taxlil qilingan⁴.

¹ Ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди. – Т. 1999; Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. –Т., 1994; Абулғори Баҳодирхон. Шажара турк. – Т., 1992; Ибн Ал-Асир. Комил фит-тарих. –Боку, 1940; Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. –Т., 1990.

² Жалолиддин Мангуберди чет эл илмий адабиётларида (XX асрнинг 20-80 йиллари). / Жалоладдин Мангуберди-ватан, юрт химоячиси. / Халқаро конференция материаллари. –Урганч, 1999, 72-77 бетлар.

³ Ойдин Тонарий. Жалолиддин Хоразмшоҳ ва унинг даври. Т. – 1999.

⁴ Бартольд В.В.. Туркистон в эпохе нашествия монголов. Том I.-М., 1963; Бунёдов З.Б. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов. –Т., 1986; Бунёдов З.Б. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов. –Т., 1986.

4 bosqich -mustaqillik yillarida o'rganilishi. Xorazmshohlar davlati tarixi keng o'rganila boshlandi. Ayniqsa, 1999 yilda Jaloladdin Manguberding 800 yillik yubileyi munosabati bilan halqaro konferentsiyaning o'tkazilishi Xorazmshohlar davlatiga oid tadqiqotlarning yana kengayishiga imkon yaratdi¹. Bu davrda O.Masharipov, SH.Saidov, I.M.Jabborov, S.Saburova, O.B.Bo'riev, N.T.Toshevlar tomonidan ilmiy adabiyotlar nashr etilgan².

Tadqiqotning maqsad va vazifalari

Markaziy Osiyoning Anushtegin -Xorazmshohlar davridagi iqtisodiy siyosiy ahvolini yoritish va taxlil etish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Mazkur maqsadni amalga oshirish o'z navbatida quydagi vazifalarni belgilab olindi:

- Anushtegin–Xorazmshohlar davlatining tashkil topish jarayonini yoritish;
- Davlatning boshqaruv tizimini taxlil etish;
- Xorazmshohlar va Qoraxitoylar o'rtasidagi munosabatlarni yoritish;
- Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini taxlil etish;
- Xorazmshohlar davlatining madaniy taraqqiyot darajasini ko'rsatish;
- Xorazmshohlar davlati inqrozi sabablarini taxlil etish;
- Mo'g'ullar istilosining Markaziy Osiyo iqtisodiy hayotiga ta'sirini ko'rsatish;
- Mavzu yuzasidan bir soatlik dars ishlanmasini ishlash.

Tadqiqotning davriy chegarasi Bitiruv malakaviy ishida Markaziy Osiyoda Anushtegin -Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi davridan XI asrdan, uning inqrozigacha bo'lgan davr XIII asrning birinchi yarmidagi davrlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning ob'ekti Markaziy Osiyoning Anushtegin -Xorazmshohlar davlati, boshqaruv tizimi, madaniyati, inqrozi, Xorazmshoharning Qoraxitoylar davlati bilan o'zaro munosabatlari.

¹ Жалоладдин Мангуберди-ватан, юрт химоячиси. / Халқаро конференция материаллари. –Урганч, 1999.

² Машарипов О., Хоразмнома. –Т., 2007; Сабурова С. Хоразмшоҳлар-Ануштегинлар даврида Хоразм.-Т., 2008; Саидов Ш.Ж. Жалолиддин Мангуберди давлати. –Т., 2000; Саидов Ш. Ўрганилаётган мамлакатлар тарихи (Хоразмшоҳлар-ануштакинлар давлатининг юксалиши ва ҳалокати). –Т., 2006; Жабборов И.М. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. –Т., 1999; Бўриев О.Б., Н.Т.Тошев. Жалолиддин Мангуберди. –Т. 1999.

Tadqiqotning predmeti Markaziy Osiyoning Anushtegin -Xorazmshohlar davridagi iqtisodiy siyosiy tarixi, Xorazmshoharning Qoraxitoylar davlati bilan o'zaro munosabatlari tarixi.

Mavzuning nazariy va metodologik asoslari;

Ushbu mavzuni yoritishda bugungi kunda tarixchi olimlar oldiga qo'ygan talablar asosida kelib chiqib, mavzuni haqqoniy, ob'ektiv yoritishga harakat qilindi. Shuningdek, mavzuning nazariy asosi solishtirish, qiyosiy taxlil, davrlashtirish, analiz va turli tarixiy uslublardan foydalanilgan holda yoritildi. Mavzu yuzasidan ishlangan dars ishlanmasida redagogika fanida ilgari surilgan uslublardan, interaktiv uslublardan unumli foydalanildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati

Bitiruv malakaviy ishi natijalaridan Oliy va o'rta maxsus ta'limda mashg'ulotlar olib borishda keng foydalanish mumkin. Mavzu bo'yicha bir soatlik dars ishlanmasi ishlab chiqildi. Undan kasb-hunar kollejlarida keng foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tarkibiy tuzulishi.

Bitiruv malakaviy ishi Kirish, 2 bob, 6 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat

I-BOB Anushtegin –Xorazmshohlar davridagi siyosiy vaziyat

I.1. Anushtegin–Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi

Anushteginlar sulolasi vakillari, sobitqadamlik bilan, uzoqni o'ylab qilingan diplomatik ustomonlik, mavjud siyosiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan oqilona faoliyat olib borganlari natijasida ulkan imperiyani yarata olganlar. Bunda ular, Saljuqiylar sulolasining zaif tomonlaridan ustalik bilan foydalandilar, Qoraxitoylar, Qoraxoniylar, G'uriylar, Abbosiy xalifalar bilan goh nozik diplomatik usul, goh kuch ishlatish oqibatida buyuk saltanatga asos soldilar.

Sulola asoschisi Anushtegin, o'g'uzlarning bekduli urug'idan bo'lib, saljuqiy hukmdor Sulton Malikshoh (1072-1092 y.y) saroyida tashtdorlik lavozimidan 1077 yili Xorazm shihnasi (boshqaruvchisi) lavozimiga tayinlanadi¹. Anushtegin (1077-1097 y.y) o'z faoliyati davomida Saljuqiylarning ishonchiga sazovar bo'ldi. Bu ishonch tufayli, uning avlodlari Xorazmda hukmronlik qilishni qonuniy meros sifatida qabul qilib oldilar. Anushteginlar ma'lum bir davrgacha vaziyat taqozosi bilan saljuqiylarga xizmatda sadoqat ko'rsatdilar. Chunki XI asr boshlaridan XII asr o'rtalariga qadar butun SHarqda, musulmon dunyosida saljuqiylardan qudratli bironta sulola va davlat bo'lgan emas. Hatto xalifalik poytaxti Bag'dod ham, ular tasarrufida bo'lib, xalifa dunyoviy hokimiyatdan chetlashtirildi, amalda esa faqat diniy hokimiyatnigina ifodalardi xolos. Saljuqiylar G'arbda O'rta yer dengizi va Yevropagacha cho'zilgan hududlarni egallab shon-shavkatda buyuklik darajasiga ko'tarilgan edilar. Xorazmshohlar-Anushteginlar sulolasi asoschilarining tarixiy xizmati shunda ediki, ular rasman saljuqiylarga qaram bo'lgan holda, amalda bo'lajak mustaqil Xorazm davlatining poydevorini yaratishga muvaffaq bo'ldilar.

Sulola asoschisi Anushtegindan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Qutbiddin Muhammad (1097-1127) mavjud vaziyatdan ustalik bilan foydalanib, hatto saljuqiylarning eng buyuk mavqeini xalqaro miqyosda va shuningdek, ichki tomonidan ham mustahkamlashga xizmat kildi. Saljuqiy hukmdorlarining ishonchiga sazovor bo'lgan Qutbiddin Muhammad Xorazmshoh amalda mustaqil Xorazm

¹ Саидов Ш.Ж. Жалолиддин Мангуберди давлати. –Т., 2000, 9-бет.

davlatiga asos soldi. Uning saljuqiylarga qaramligi nomigagina, ya'ni har yili muayyan o'lpon to'lab turish tarzida bo'lgan.

Mazkur hukmdor to'g'risida «Tarixiy yodgorliklarda Xorazmshohning unvoni «Podsho qutb ad-Dunyo va ad-Din Abu al-Fath Mu'an Amir al-mo''minin» («Dunyo va din qutbi, g'alabalar otasi, mo'minlar amiri – xalifaning yordamchisi») so'zlari ham Xorazmshohning obro'i baland ekanidan shohidlik beradi», - deb yozgan Ziyov Bunyodov¹.

«Qutbiddin Marvda ta'lim olib, yaxshi ma'rifat olgan, adab va din ilmlarini o'rgangan edi... U har tomonlama iste'dodli odam edi, olimlar va din arboblari uni yaxshi ko'rishar, u ham ularni izzat-hurmat qilardi... Fuqarolariga adolatli, ular ham uni yaxshi ko'rib, uning nomini aziz tutar edilar»².

Qutbiddin Muhammad boshlagan xayrli ishlarni, uning o'g'li Al-Malik Abu Muzaffar Alouddin Jaloliddin Otsiz davom ettirdi. Xorazmshoh Otsiz (1127-1156 y.y) hukmronlik davrini, asosan, ikki bosqichga bo'lish mumkin:

1. 1127—1138—yillar
2. 1138—1156 yillar

Agar Xorazmshoh Otsiz hukmronligining birinchi davrida (1127-1138 y.y) Sulton Sanjarga sadoqat bilan xizmat qilgan bo'lsa, hukmronligining ikkinchi davrida (1138-1156 y.y) mustaqil Xorazm davlatiga asos soldi. Xorazmshoh Otsiz har bir qulay vaziyatdan foydalanib, birinchi marta xorazmshohlar davlatining hududlarini kengaytirish siyosatini boshlab berdi. Xorazmshoh, Sulton Sanjar farmonini buzib, saljuqiylarga tobelikda bo'lgan ko'pgina yerlarni bosib oldi.

Sulton Sanjar ham Xorazmshoh Otsizning qudratini tan olishga majbur bo'ldi. Natijada siyosat maydonida kuchli davlat – Xorazmshohlar davlati paydo bo'ldi va mustahkamlandi. Strategik siyosiy maqsadlarni ko'zlagan Xorazmshoh Otsiz qo'shni davlatlar bilan samarali diplomatik munosabatlarni o'rnatishga intildi. V.V. Bartol'd uning qo'shni davlat hukmdorlariga yozgan maktublarini «SHarqona diplomatiya namunasi» deb baholagan. Bunday harakatlarning natijasida kuchli, amalda mustaqil davlatga asos solgan.

¹ Бунёдов З. Хоразмшоҳлар – Ануштакинлар давлати. – Т., 1998, 9-бет.

² Ўша асар, 8-бет.

Bu albatta, Xorazmshoh Jaloliddin Otsizning o'z davridagi siyosiy vaziyatni chuqur anglagan mohir diplomat siyosiy arbob bo'lganligidan dalolat beradi. Xorazmshoh Otsiz ham barcha xorazmshohlar kabi yuksak madaniyatli hukmdor edi. «Alouddin Otsiz otasiga o'xshab, Marvda yaxshi ma'lumot oldi. Otsiz musulmonlar podshohiga xos islom diniga va ilohiyot olimlariga homiylik qilishdan tashqari, turli fanlar va san'at ahlini qadrlar, o'zi ham forscha qasida va ruboiylar yozar, juda ko'p buyuk shoirlarning bayotlarini yoddan bilardi. U Xorazm aholisiga g'amxo'r, adolatli podshohlik qildi. Fuqarolar Xorazmshoh Otsizni yaxshi ko'rар, uning zamonida xalq xavf-xatardan mutlaqо hоli, tinchlik va osoyishtalikda, adolatda yashadi»¹.

Jaloliddin Otsiz vafot etgach, o'g'li El-Arslon 1156 yil 22 avgust kuni taxtga chiqdi (1156-1172 y.y). U ham o'z sulolasi an'analarini sodiqlik va sobitqadamlik bilan rivojlantirib, mamlakat sarhadlarini kengaytirish siyosatini davom ettirdi. El-Arslon 1167 yilga kelib Balx va Sabzavor shaharlarini, shuningdek, eng yirik shaharlardan biri bo'lgan Nishopurni egalladi. Natijada, «Toj ud-Dunyo va ad-Din molik ut-Turk va al-Ajam» («Ajam va turklar podshosi») nomini oldi.²

El-Arslon 1172 yil 17 mart kuni vafot etdi. El-Arslon o'limi oldidan kenja o'g'li Sultonshohni valiahd qilib tayinladi. Ammo davlat va harbiy ishlarga uning onasi Turkon Xotun qo'lida bo'lgan.

Ammo Alouddin Takash, ya'ni El-Arslonning katta o'g'li Xorazm xalqi va qo'shinlarining madadi bilan rasman 1172 yil 11 dekabrda Xorazm taxtiga o'tirdi. Oqibatda saltanatda aka-ukalar o'rtasida toju-taxt uchun yigirma yil davom etgan o'zaro urushlar boshlandi.

Sulton Takash ukasiga kurashish bilan birgalikda, saltanatni mustahkamlash va sarhadlarini kengaytirish siyosatini davom ettirdi. Takash davrida Dehiston qo'shib olindi. Sultonshoh ancha vaqtgacha Xurosonda hukmdorlik qilib, taxt uchun akasiga qarshi shiddatli kurash olib bordi. SHuni alohida qayd qilib o'tish kerakki, Sultonshoh ham ancha qobiliyatli va ma'rifatli hukmdor edi. Ammo, hokimiyatga intilish hissi uning aqlidan ustun keldi. Uzoq kurashlardan keyin, ya'ni 1188 yil bahoriga kelibgina vositachilar ishtirokida aka-ukalar o'rtasida sulh tuzilib,

¹ Бунёдов З. Хоразмшоҳлар – Ануштакинлар давлати. – Т., 1998, 45-бет

² Машарипов О., Хоразмнома. –Т., 2007, 78-бет.

Sultonshoh akasi Takash hukmdorligini tan oldi. SHundan keyingina, 1189 yil 4 iyulda Rodekon (Rodgon) shahrida Takashning sultonlik taxtiga chiqish marosimi o'tkazildi¹. Ammo Sultonshoh buzg'unchilik ishlarini davom ettirib, akasiga qarshi kurashda g'uriylardan madad so'rab bordi. Biroq, u o'z maqsadiga erisha olmadi. Faqat 1193 yilda Sultonshohning vafoti bu ayovsiz kurashga xotima yasadi.

Endi Xorazmshoh Takash hech qanday xavotirsiz o'z davlatini mustahkamlash va sarhadlarni kengaytirish siyosatini yanada kuchaytirish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1194 yili Marvni qo'shib oldi. Hatto qoraxitoylar yurti Bolasog'ungacha bo'lgan hududlarni qo'shib olish siyosatini olib bordi. 1194 yil 4 mart kuni SHimoliy Eron hududida bo'lgan jangda saljuqiylarning so'nggi hukmdori Tug'rul III tor-mor keltirildi va Eron hududlarida saljuqiylar hukmronligi tugadi, Xamadon va Iroq Ajami (SHarqiy Eron hududlari) yerlarini bo'ysundirdi. Xalifa An-Nosir (1180-1225 y.y) qo'shinlarini bir necha marta yengib, juda katta hududlarda o'z hukmronligini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi.

Takash 1200 yil 3 iyulda SHahriston shahrida vafot etdi. Takash Xorazmshohlar saltanatining (imperiyasining) asoschisi edi. SHunday ulkan saltanat hukmdori bo'lishi bilan birgalikda u adolatni yaxshi ko'rardi. «Xorazmshoh Takash o'z fuqarolariga nisbatan adolatli bo'lgan, odatdan tashqari qobiliyatga ega, buyuk diplomat va lashkarboshi edi», – deb ma'lumot beriladi tarixiy manbalarda².

Sulton Takash o'z o'g'li Alouddin Muhammadga mustahkam va ulkan saltanatni meros qilib qoldirdi. Sulton Alouddin Muhammad ham o'z sulolasining ichki va tashqi siyosat bilan bog'liq an'analarini muvaffaqiyat bilan davom ettirib, saltanat sarhadlarini yanada kengaytirdi. Sulton Muhammad davrida (1200-1220 y.y) saltanat tarkibiga sharqda Yettisuv, Qoshg'ar, SHimoliy Hindistongacha bo'lgan hududlar, g'arbda Iroq (xalifalik), Kavkaz yerlarigacha, shimolda Dashti Qipchoq kengliklaridan, janubda to Hind okeani va Fors ko'rfazigacha bo'lgan hududlar kirardi. Hatto eng cheka Ummon (Arabiston yarim oroli) yerlarida ham Muhammad nomiga xutba o'qilardi.

¹ Бунёдов З. Хоразмшоҳлар – Ануштакинлар давлати. – Т., 1998, 58-бет

² Ўша асар, 60-бет

I.2. Davlatning boshqaruv tizimi

Anushteginiylar davrida davlat boshqaruvi ikki tizimdan: dargoh va devonlar majmuidan iborat bo'lgan. Dargohda hojib, ulug' hojib tutgan mavqe yuqori bo'lgan. Hojiblik xizmati xorazmshohlar davrida ham o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Ulug' hojib hukmdorning eng yaqin kishilaridan biri hisoblangan. Hojiblarga g'oyatda muhim vazifalar, masalan, maxsus muzokaralar olib borish va, hatto, vazirlar faoliyatini taftish etish kabilar topshirilgan. Shuningdek hojib lavozimidagi amaldorga butun bir viloyat noibligi topshirilgani ham ma'lum.

Dargohdagi barcha xo'jalik xizmatlari faoliyatini boshqarish ustozdorga yuklatilgan. Sulton chaqirganda birinchi hozir bo'ladigan shaxs ham ustozdor hisoblangan. Oliy farmon olgan ustozdor shunga ko'ra tegishli xizmatlarga buyruq bergan va uning gapini ikki qilish bo'lmagan. U dargohning barcha masalalari bilan shug'ullangan va bundan tashqari bosh xazina mablag'laridan ham istifoda etgan holda nonvoyxona, oshxona, otxona, saroy xizmatchilarining xarajatlarini qoplar edi¹. Shuningdek, u ushbu mablag'dan maosh berish va boshqa xarajatlar uchun ham foydalangan. Nisaviyning yozishicha, bunda ustozdor ulardan tilxat olgan. Tilxatga vazir, mustavfiy, mushrif, nozirning muhrlari bosilgan bo'lishi kerak edi. A'yonlar xarajatiga ketgan mablag' haqidagi tilxat ariz muhri bilan tasdiqlanishi kerak bo'lgan.

Amiri oxur mansabi ham mas'uliyatli hisoblanib, uncha-muncha kishi bu lavozimga tayinlanmagan. Chunki uning bo'yniga sultonga tegishli otlar parvarishi yuklatilgan. Otlarning soni esa 30 minggacha bo'lgani ma'lum. Podshohona ovlarni o'rniga qo'yish tadbirlarini amiri shikor uyushtirgan. Saroydagi muhim xizmatlardan yana biri bu tashtdordir. Garchi tashtdor yuvinish anjomlarini saqpovchi ma'nosini bersa-da, ammo aslida bu mansabni egallagan kishi sultonning eng yaqin kishilaridan biriga aylangan. Hukmdor unga o'zining eng maxfiy fikrlarini ham izhor qilishi mumkin edi. Yuqorida tilga olganimiz Anushtegin saljuqiy Sulton Malik saroyida xuddi mana shunday tashtdor mavqeiga erishganda, unga mazkur mansabga viloyatda mutanosib keluvchi shihnalik, ya'ni Xorazm shihnaligi lavozimi beriladi. Chunki tashtdor xizmati bilan bog'liq barcha xarajatlar Xorazm viloyatidan tushadigan

¹ Жабборов И.М. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. -Т., 1999, 35-бет.

solliqlar bilan qoplanardi. Yana bir muhim lavozim bu qissadordir. U hafta davomida sultonga tushgan arzlar, shikoyatlarni yig'ib, juma kuni kechasi hukmdorga topshirardi. Keyin esa har bir arzchi yo shikoyatchiga tegishli javobini berardi. Bu mansabga ham har kim tayinlana berilmasdi. Zero, hukmdor bilan oddiy xalq o'rtasida aloqa bog'lab, raiyyat ahvoli va zoridan xabardor qilib turish savobli ishini hamma ham halol bajara olmasligi tabiiy. Dargohda shuningdek chashnigir — sultonga beriladigan ovqat, ichimliklarni tekshirib ko'ruvchi, jomador, sultonning kotibi (davatdor), sharobdor, farrosh, bayroqdor (amiri alam), xos xizmatkorlar boshlig'i (maliki xavas) kabi xizmat va vazifalar ham bo'lgani ma'lum¹.

Ijroiya ishlarini devonlar (vazirliklar) olib borib, bu tizim tepasida vazir (bosh vazir) turgan. Vazir ham hukmdorning eng yaqin kishilaridan, birinchi maslahatchisi sifatida gavdalanadi. O'z faoliyatida u faqat sulton oldidagina javobgar bo'lgan. Rasmiy tadbirlar, turli maqsaddagi muzokaralarda hukmdor nomidan ish tutgan. Unga barcha amaldorlar, noiblar, harbiylar bo'ysungan. Ishdan olish, ishga tayinlash, maosh, nafaqa tayinlash, xazina va soliq tizimini nazorat etish, mahalliy vazirlar hisobotini olish kabi qator vazifalar uning vakolatida bo'lgan².

Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqarish apparati al-majlis al-faxri deb atalib, uni oliy darajadagi mansabdor vazir boshqargan. Vazir devon mansabdorlari (asxab-ul-davovin) boshlig'i ham edi. Ularga nafaqa (arzak), ish haqi (mavojib) to'lash, soliq boshqarmasini, davlat hazinasini nazorat qilish ham uning vazifasi hisoblangan.

Vazirlik mansabi davlatda juda katta ehtirom bilan hurmat qilingan. Chunki mamlakatning moddiy ahvoli, aholining tartib-intizomga rioya etishi, amaldorlarning haqqoniy xizmat qilishi, qolaversa davlat boshlig'ining siyosiy va ma'naviy mavqei ana shu vazirning ishbilarmonligi, mamlakatni boshqarish qoidalarini bilishi va unga amal qilishi, hayot tajribasiga ega bo'lishi bilan bog'liq edi. Shariat qoidalarini yaxshi biladigan, katta hayot tajribasiga ega bo'lgan, sadoqat bilan xizmat qilaoladigan shaxslarning vazirlik mansabiga tayinlanganlar. Vazirlarning sadr, dastur yoki xoja'i buzrug unvonlari bo'lib, ular mansabining belgisi siyoxdon (davlat)

¹ Бунёдов З. Хоразмшоҳлар – Ануштакинлар давлати. – Т., 1998, 89-бет

² Машарипов О., Хоразмнома. –Т., 2007, 103-бет

va maxsus matodan to'qilgan salla edi. Vazirlik mansabiga odatda ajdodlari mansabdor bo'lgan arab yoki fors millatiga mansub bo'lgan shaxs tayinlangan. Turkiy xalq vakillari bu mansabga tayinlanmagan. Vazir arab yoki fors tilini bilishi, ma'muiy ishlarga qobiliyatli bo'lishi, saroy axloq-odob qoidalarini bilishi zarur edi. Vazirlar qabul paytida shohning o'ng tomoniga qo'yilgan mahsus kursida o'tirgan. Xorazmshohlar davlatida vazir mansabi birinchi marta sulton Otsiz davrida joriy etilgan. Xorazmshohlar davlati tarixida o'z vazifasini vijdonan bajargan, mamlakatda sadoqat bilan xizmat qilgan va tarixda yaxshi nom qoldirgan vazirlar ko'p bo'lib, ulardan eng mashhuri sulton Takash hukmronligi davrida vazirlik qilgan Nizom-al-mulk Shams-ad-din Mas'ud ibn Ali ad-Xaraviy edi. Uning davrida Marv, Urganch kabi shaharlarda machit, madrasa va qo'lyozmalar saqlanadigan joy qurdirganligi tarixda ma'lum. Mo'g'ullar bosqinchiligi arafasida shoh Alovuddin Muhammad vazirlik mansabini bekor qilib, uning o'rniga oltita vakildorlardan iborat kengash tuzgan edi. Bu Xorazmshohlar davrining oxirlarida tuzilgan davlat kengashi bo'lib, muhokama etilgan har bir masala yakdillik bilan qabul qilinishi va qarorda kengash a'zolari hammasining imzosi bo'lishi kerak edi.

Devonlarning faoliyati saljuqiylar zamonasidagi tizimdan deyarli farqlanmagan. Insho yoki tug'ro devoni rasmiy hujjatlar, yozishmalarni tuzish bilan shug'ullangan¹. Moliya ishlari bilan istifo devoni, davlat nazorati tadbirlari bilan ishrof devoni, harbiy masalalar, chunonchi, qo'shinni qurol-aslaha bilan ta'minlash, qo'shin qismlari shaxsiy tarkibini nazorat qilish, harbiylarga ajratilgan yer-suv nazorati, harbiy ko'riklar o'tkazish kabilar bilan devoni arz yo jaysh shug'ullangan. Yana bir devon bo'lib u devoni xos deyilgan. Haqiqatan ham bu maxsus devon hisoblanib, hukmdor sulolaga tegishli yer-suv, mol-mulk, sulton mamluklariga maosh berish vazifalari bilan mashg'ul bo'lgan.

Davlat musulmon olamida qabul qilingan qonun chiqaruvchi-dargoh hamda ijroiya-devonlar tizimida boshqarilgan, davlat boshlig'i sulton hokimiyatining huquqlari hech bir qonun-qoida bilan chegaralanmagan edi. Saltanatni hokimlar, noiblar, vazirlar, lashkar boshliqlaridan iborat kuchli harbiy aslzoda guruhlar,

¹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т., 2001, 143-бет.

mustavfiy (daftardor hisobchilar), qozilar, sadrlar va boshqa ko'plab saroy mansablaridan iborat ulkan arkoni davlat doirasi qurshab turar edi.

Vakildorlar Davlat kengashi tuzilishiga sabab ko'chmanchi mo'g'ullar hujumi xavfining kuchayganligida edi. Lekin mo'g'ullar xujumi xavfiga qarshi vakillar kengashi birorta jiddiy qaror qabul qilganligi yoki chora-tadbir ishlab chiqqanligi haqida ma'lumotlar yo'q. Mamlakatdagi oliy mansablardan yana biri- bu viloyatlar va nohiyalar vazirlari edi. Bu mansab faqat Xorazmshohlar davlatida bo'lgan. Bunday vazirlar odatda siyosiy jihatdan muhim hisoblangan viloyatlarga, shaharlarga va nohiyalarga tayinlanib, ular shohning maxsus topshiriqlarini bajarganlar. Oxirgi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi ha bir shaharga vazir tayinlangani tarixdan ma'lum. Xorazmshohlar davlati markaziy boshqarish apparatida siyosiy ahamiyati jihatidan uchinchi o'rinda turadigan mansab-buyuk hojib mansabi edi. Odatda bu mansabga turk urug'-qabila zadogonlari vakillaridan tayinlangan. Hojiblar shohning shaxsiy xizmatida bo'lib, saroy tantanalari tartibini nazorat qilishgan, shaxsan shohga aloqador masalalar yuzasidan unga axborot berib turgan, uning maxsus topshiriqlarini bajargan va unga doimiy hamrohlik qilgan. Shoh ixtiyoridagi maxsus topshiriqlarni bajaruvchi hojiblar ustidan nazorat ishlarini amalga oshirish kotib-al-kabir (buyuk xojib)ga yuklatilgan. Masalan, Xorazm shohlaridan Nizom-al-Mupini o'zboshimchaligi, xazina mulkini talon-taroj qilayotganini tekshirish va aniqlash uchun yuborgan. Hojib Erboz vazirotni devoni daftarlarini, mol-mulk ro'yhatini (jaroidni), arxivni (mahzan), kotiblarni va moddiy tassarrufining faoliyatini tekshirish vakolatini olgan edi¹. Sulton Jaloliddin Manguberdi Hojib-al-xoss Xonberdini qo'zg'olonchilar boshlig'i Bandar, Hojib al-xosa Badriddin Tutakchi Sulton Jaloliddin nomidan ismoiliylar bilan muzokaralar olib borish uchun yuborgan. Xorazm davlatida Hojiblar sulton-shohlarning maxsus topshiriqlarini bajargan va hattoki uning nomidan qo'shni davlatlar hukmdorlari bilan muzokaralar olib borgan hamda elchilik vazifasini o'tagan. Hattoki xalifa muntaqsir elchisini qabul qilgan. Yuqorida ko'rib o'tilgan davlatning asosiy amaldorlaridan tashqari shoh saroyida turli mayda vazifalarni bajaruvchi mansabdorlar ham bo'lgan:

¹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т., 2001,144-бет.

Ustozdir – shoh saroyidagi barcha xo'jalik yumushlariga boshchilik qilgan. Otxona, nonvoyxona, oshxona va saroy yugurdaklari uning ixtiyorida edi. Ustozdir saroy sarfiyot xizmatlariga haq to'lash uchun xazina hisobidan xarajat qila olar edi. Keyingi saroy mansabdorlari qatoriga Amir-oxur- shoxning otboqari, amir-shikor-ovchilik ishlarini tashkil qiluvchi, toshdor –shoxning shaxsiy hammomini boshqaruvchi, tarobdor shoxni shaxsiy mirzasi, amir-al-alam-tug'dor va boshqa amaldorlar ham mavjud edi. Xorazmshohlar qo'shini o'z zamonasi uchun g'oyatda kuchli hisoblanar va o'z davrining eng yaxshi qurollari bilan jihozlangan edi. Bu qo'shnlarda odatdagi qurollardan tashqari qamal mashinalari ham bo'lgan. Bular orasida harakatchan minorlar, taranlar, hujum narvonlari ajralib turgan. Z.M.Buniyotov bular Takash yorlig'iga ko'ra «olovdan dahshatliroq, shamoldan ko'ra tezroq» deydi. Xorazm yaxshi tayyorgarlik ko'rgan doimiy armiyaga ega edi. Doimiy armiya asosan turklardan tuzilgan bo'lib, qo'shin bo'linmalar qabilachilik asosida tuzilgan edi. 1195 yilgi harbiy reestrga ko'ra Xorazmshohlar 170 mingdan ziyod doimiy armiyaga ega edi. Ba'zi tarixiy ma'lumotlarda Xorazmda 400 mingli armiya borligi qayd etilgan. Xorazmshoxlarning shuningdek qullardan tuzilgan shaxsiy gvardiyasi (xaras) ham bor edi. Xaras ko'proq savdo karvonlarini kuzatib borgan. Qo'shnlarning bosh boshqarmasi devon-aljoyish bo'lib, uni shoh tayinlaydigan sohib – al-joyish (devon)- mohib devon al-ard boshqargan¹. Ba'zi manbalarda umum harbiy boshqaruv organi divan-i arz dar jumlai- mamolik deb ataladi. (Rashid-ad-din Vad-vad to'plamida). Devon-al-joyish hrbiylarga berilgan iqta ishlarini, hamma unvondagi harbiylarga maosh va boshqa to'lovlarni, qo'shnlarni va ularning qurollanishi ro'yxatga olish, xamma jangchilarga maoshni (arzaq) o'z vaqtida to'lanishini, ularning barcha zarur anjomlar bilan ta'minlanishini tekshirib turgan. Buyuk viloyatlarda mahalliy harbiy boshqarmalar ham tuzilgan.. Xorazmshohlar armiyasidagi eng muhim mansablardan ikkinchisi harbiy nazoratchi-nazir-al edi. U ham sohib-al-divon al-joyish nazorati ostida ish olib borar edi. Armiya qo'mondonlari qayd yoki muqaddam deb atalib, eng ish bilarmon, epchil

¹ Саидов Ш. Ўрганилаётган мамлакатлар тарихи (Хоразмшохлар-ануштакинлар давлатининг юксалиши ва халокати). –Т, 2006, 21-бет.

amirlar (lashkarboshilar) bu mansabga tayinlangan. Ba'zi hollarda viloyat hokimlari ayni bir vaqtning o'zida mahalliy qo'shinlarga ham qo'mondonlik qilgan. Viloyat qo'shinlari qo'mondoni ham sohib-al-joyish unvoniga ega edi. Yangi viloyatlarni bosib olgandan so'ng, shu hudud yerlari amirlarga iqta tarzida in'om qilingan va eng katta xizmat ko'rsatgan amirlarga amir-ul-umaro unvoni berilib, shu hududiga amirlar oqsoqoli etib tayinlangan. 10 mingacha otliq askarlar qo'mondoni molik deb atalgan. Ularning ba'zilariga jangda jonbozlik ko'rsatgani uchun xon unvoni berilar edi. Xorazmshohlar armiyasida aloqachilar, razvedkachilar bo'lib, ularni go'vushlar va josuzlar deb atashgan. Josuzlar g'animning qo'shinlavri holati, uning harakati va maqsadlari haqida ma'lumotlar to'planganlar. Armiyada diniy ishlarga qozi-yixasham yoki qozi-al-askar rahbarlik qilgan. Xorazm qo'shinlari yaxshi qurollangan bo'lib, odatdagi qilich, nayza, kamon kabi qurollardan tashqari manjaliq (katapul't) tosh otar kabi hujumda ishlatiladigan narvonlari, to'sinlardan ham keng foydalanganlar. Xorazmshohlar istehkomlar va qat'alar qurishga katta e'tibor berganlar. Xorazmda har tomonlama baland va mustahkam qurilgan Ilal, Xo'rondiz, Qohri, Ardaxn kabi qal'alar bo'lganligi haqida tarixiy ma'lumotlar saqlanib qolgan. Qal'alardagi jangchilarga mustahfizlar qo'mondonlik qilgan¹. Xorazmshohlar davlatida politsiya va jazolash vazifalarini maxsus otryadlarga rahbarlik qiluvchi shixnalar bajargan. Bu mansabga asosan turk harbiy boshliqlari – amir etib tayinlangan. Shixna hokimiyat uchun xavfli bo'lgan hamma ishlarni nazorat qilgan. Har bir bosib olingan viloyat va nohiyalarga zudlik bilan shihnalar tayinlangan. Xorazmshohlar davlatida qo'shinlarning tashkiliy tuzilishi, hujum yoki mudofasida qo'llaniladigan harbiy harakatlar tuzugi arab qo'shinlari tuzilishidan oligan bo'lib, ilg'or-o'ng qanoat markaz- chap qanoat ar'ergard va zasada (xofiya) qismlardan iborat edi. Harbiy harakat yoki urush e'lon qilishdan oldin yirik qo'mondonlar, ulamolar, fakihlar, munajjimlar ishtirokida kengash o'tkazilar va shu kengashda ishlab chiqilgan reja asosida harbiy harakat boshlanar edi.

Xorazmshohlar davlatida XIII asrning boshlarida mo'g'ullarning O'rta Osiyoga istilosi (bosqinchiligi) boshlanishi arafasida Xorazmshohlarni Anushteginlar

¹ Саидов Ш. Ўрганилаётган мамлакатлар тарихи (Хоразмшоҳлар-ануштакинлар давлатининг юксалиши ва ҳалокати). –Т, 2006, 23-бет.

sulolasining so'nggi xukmdori Ala-ad-din Muhammad davrida ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlari, o'zaro nizolar kuchayib ketdi. Bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalangan Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar Xorazmni zabt etishga muvaffaq bo'lgan.

1.3. Xorazmshohlar va Qoraxitoylar o'rtasidagi munosabatlar

Elarlon otasi davrida Xorazmning bo'ysundirilgan ko'chmanchi turkman va qipchoq qabilalari yordamida Movarounnahrning ichki ishlariga ham tez-tez aralasha boshladi. 1158 yilda u katta qo'shin bilan Movarounnahrni bostirib kirdi. Bu vaqtda qoraxitoylarga vassal bo'lgan qoraxoniylar ko'chmanchi qarluq qabilalari bilan jang olib borishayotgan edi. Elarlon qarluqlarga Buxoro va Samarqand uchun olib borgan janglarda yordam berdi. Lekin qoraxitoylar qo'shinlari yordamga yetib kelishi bilan Elarlon Xorazmga qaytishga majbur bo'ldi. U bir necha marta Xurosonga yurish qilgan bo'lsa-da, muvaffaqiyatga erisha olmadi. 1171-1172 yillarda qoraxitoylarning katta qo'shini Xorazmshohning o'lponini o'z vaqtida to'lamayotganligini bahona qilib Xorazm ustiga yurish qildi¹. Elarlonning buyrug'i bilan Sirdaryodagi katta to'g'on buzib tashlandi va katta maydon suvga bostiriladi. Bu qoraxoniylar qo'shini yurishini qiyinlashtirdi va Xorazmning poytaxti Gurganch (Urganch) ni talon-taroj qilishdan saqlab qoldi. Lekin qoraxoniylarning bu bosqini davrida Elarlon vafot etdi. Undan keyin Xorazm taxtini uning kichik o'g'li Sultonshoh egallaydi. Elarlonning katta o'g'li Alouddin Takash qoraxitoylar yordami bilan ukasi Sultonshohdan taxtni tortib olishga erishdi. Sultonshoh Xurosonga qochishga majbur bo'ldi. SHundan so'ng Alouddin Takash (1172-1201) Xorazmda mahkam o'rnashib, qoraxitoylarga va'da bergan o'lponni to'lashdan bosh tortadi. Unga javoban qoraxitoylar Xorazmga yana yurish qiladilar, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Sultonshoh ixtiyoriga bir kichik qo'shin qoldirib o'zlari orqaga qaytadilar. Sultonshoh esa qo'shin bilan Marv shahrini, Seraxs va Tusni egalladi. Qoraxitoylarning muvaffaqiyatsiz yurishlaridan keyin, Takash o'z davlatini yanada mustahkamladi. Movarounnahrni, Xurosonga bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi. U Movarounnahrni egallay olmagan bo'lsa-da,

¹ Жабборов И.М. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. -Т., 1999, 56-бет.

lekin Xurosonni bir necha tumanlarini bosib oldi. Lekin Xorazshoh Takashning Xurosonda kuchli va xavfli raqibi bor edi. Bu tobora kuchayib borayotgan g'uriylar davlati edi. G'ur viloyati hozirgi Afg'onistondagi Gerirud daryosi bo'yida, Hirotidan Balxgacha, Qobuldan g'aznagacha cho'zilgan viloyat bo'lib, bu yerda asosan forsiy qabilalar yashagan. So'nggi Saljuqiylar davrida G'ur viloyati o'z mustaqilligini ancha mustahkamladi. 1150-1151 yillarda g'uriylar hokimi Alouddin g'aznaviy sulosasi sultoni Bahromshoh ustidan g'alaba qozonib, G'azna shahrini vayron qilgan edi. G'aznaviylarga so'nggi zarbani 1186-1187 yillarda g'uriylar hokimi g'iyosiddin Muhammad berdi. SHundan so'ng g'uriylar hozirgi Afg'onistonni hamda Tojikiston va O'zbekistonning janubiy hududlarini ham ma'lum vaqt egallab turdilar¹. Xurosonda Saljuqiylarning kuchsizlanganidan foydalanib, g'uriylar sultoni g'iyosiddin Muhammad 1175 yilda Hirotni egalladi va Xurosonning markaziy hududlariga hujumlar uyushtirib turdi. Qoraxitoylarning vassali hisoblangan Xorazmshoh Takash esa Xorazmni qoraxitoylar qo'lidan qutqarish uchun katta kuch sarflashga majbur bo'O'ldi. Faqat XII asrning 80-yillarida u Xurosonni ba'zi bir hududlarini qo'lga kiritdi. 1187 yilda u Nishopurni, 1192 yilda Ray shahrini, 1193 yilda Marv shahrini egalladi². Bag'dod xalifasi Nasr (1180-1225) va g'arbiy Saljuqiylar sultoni Tug'rul II o'rtasidagi nizodan foydalanib, Takash qo'shinlari 1194-yilning mart oyida Tug'rul II ga qarshi urush ochdi va uni yengib Hamadon shahrini egalladi. Tug'rul II esa jangda o'ldirildi. Xorazmshohning tobora kuchayib borayotganidan xavfsiragan Xalifa Nasr qo'shinlari Takashga qarshi chiqdilar. 1196 yilning iyul oyida xorazmliklar xalifa qo'shinlarini yengdilar. SHu tariqa Eronning katta qismi Xorazmshohlar qo'liga o'tdi va davlati, hududi birdaniga ikki baravar kengaydi. Xorazm davlati endi Bag'dod xalifasiga tegishli joylar va g'uriylar bilan chegaradosh bo'lib qoldi. 1200 yilda Takash vafot etdi va shundan keyin Iroqda xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Bu yerdagi Xorazm qo'shinlarining katta qismi qirib tashlandi, qolganlari Xurosongacha kelishga majbur bo'ldi. Xorazmshohlar ichida Takash eng talantli lashkarboshi va hukmdor edi. U juda og'ir vaziyatda Old Osiyo va O'rta Osiyoning katta qismini birlashtirib qudratli davlat tuzishga muvaffaq bo'ldi. Lekin

¹ Сабурова С. Хоразмшоҳлар-Ануштегинлар даврида Хоразм.-Т., 2008, 25-бет.

² Машарипов О., Хоразмнома. –Т., 2007, 145-бет.

Takashning katta xatosi shunda ediki, u o'zining xotini Turkonxotun mansub bo'lgan qipchoqlar qabilasiga katta erkinliklar berdi. Ularni doimo qo'llab quvvatladi.

Turkonxotunning davlat ishlariga aralashuvi Xorazmdagi ichki nizolarini kuchayishiga olib keldi. Takashning o'limidan keyin Xorazm taxtiga uning o'g'li Alouddin Muhammad o'tirdi (1200-1220). 1203-yilda Muhammad qoraxitoylarning yordami bilan Xurosonni butunlay bosib oldi. Hiroti va yaqin atroflarini egalladi, 1207-yilda u o'z poytaxtiga qaytib, Movarounnahrni bosib olish uchun tayyorgarlik ko'ra boshladi. SHu yilning o'zidayoq Muhammad Movarounnahrda katta kuch bilan harbiy yurish boshladi. Buning sababi Buxoroda ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni edi. Bu qo'zg'olon 1206-yilda Buxoro sadri (hokimi) Muhammad ibn Abdulazizga qarshi qaratilgan edi¹. Buxoro sadrlariga xos barcha yomon xislatlar bu odamda mujassam edi. U xalqdan katta soliqlar olib ularni shafqatsizlarcha ezar edi. U diniy rahbar bo'lishiga qaramasdan ayt-ishratga, ovga mukkasidan ketgan edi. Buxoroda uning zulmiga qarshi xalq harakatining asosiy kuchlari shahar hunarmandlari edi, qishloq aholisi-dehqonlar bu harakatni qo'llab-quvvatladi. Bu qo'zg'olonning boshlig'i qalqon yasovchi ustaning o'g'li Malik Sanjar ismli shaxs edi. Qo'zg'olonchilar sadr Muhammadni quvib chiqardilar. U qoraxitoylardan yordam so'radi. Lekin Xorazmshoh Muhammad qoraxitoylardan oldinroq harakat qilib, Buxoroni bosib oldi va shu tariqa Movarounnahrni Xorazm tarkibiga qo'shib olish boshlandi. Qo'zg'olonchilarning boshlig'i Malik Sanjar Urganchga olib ketildi. Movarounnahr xalqi Xorazmshohni qoraxitoylar zulmidan qutqaruvchi kuch sifatida qarshi oldi. Muhammad Xorazmshoh Qoraxitoylarning vassali bo'lgan Samarqand hokimi (qoraxoniylar sulolasidan) Usmon bilan do'stona munosabat o'rnatdi. Bu esa qoraxitoylarning Samarqandga yurish qilishiga olib keldi va ular shaharni bosib oldilar. Bu vaqtda mo'g'ul qabilalaridan biri bo'lgan naymanlar qoraxitoylarning Yettisuvdagi yerlariga bostirib kirdilar. SHuning uchun qoraxitoylar shoshilinch ravishda orqaga qaytishga majbur bo'ldilar. Qoraxitoylarning qiyin ahvolga tushib qolganidan foydalangan Xorazmshoh Samarqandni egallab qoraxitoylar ustiga yurish qildi va Talas vodiysida 1210-yilda qoraxitoylar qo'shini ustidan g'alaba

¹ Машарипов О., Хоразмнома. –Т., 2007, 148-бет.

qozondi. Bu g'alaba tufayli Muhammad Xorazmshohning ahvoli ancha mustahkamlandi. Samarqand hokimi Usmon Xorazmshohning to'liq vassaliga aylandi va uning kuyovi bo'ldi. Muhammad Xorazmshohning qoraxitoylar bilan birinchi janggi 1207 yili muvaffaqiyatsiz yakun topgan edi. Sulton 1209 yili navbatdagi o'lpon yig'ish uchun kelgan qoraxitoylar elchisi Tushi olib kelgan yorliqni namoyishkorona yirtib tashlab, uni o'limga mahkum etadi¹. 1210 yili sentabr oyida Sirdaryo bo'yidagi Ilamish dashtida qoraxitoylar bilan bo'lgan hal qiluvchi jangda esa qoraxitoylar to'liq mag'lubiyatga uchrab, ularning lashkarboshchisi Tayangu o'ldiriladi. Movarounnahr butkul Xorazmshoh qo'lga o'tib, hamma joylarda sadoqatli kishilar hokim etib tayinlandilar. Qoraxoniylar xoni Usmonxon xorazmshohlar vassaliga aylanib, Sultonning qizi Xon-Sultonga uylanadi.

Qoraxitoylar ustidan qozonilgan g'alaba musulmonlarning «g'ayridinlar» ustidan «buyuk g'alabasi» deb ta'riflanib, sulton farmoniga ko'ra musulmon olamining hamma o'lkalariga bu xususda maxsus xitobnomalar tarqatildi. Mazkur g'alabadan o'ta ruhlangan Sulton Muhammad Xorazmshoh o'ziga «Iskandari Soniy (ikkinchi Iskandar)» va saljuqiylarning buyuk sultoniga taqlid qilib «Sulton Sanjar» unvonlarini oladi. Davlat muhriga esa «zil Allohi fil ard» (Ollohning yerdagi soyasi) deb «kamtarona» yozdirishni buyuradi.

¹ Сабурова С. Хоразмшоҳлар-Ануштегинлар даврида Хоразм.-Т., 2008, 34-бет.

II-BOB Xorazmshohlar davlatining iqtisodiy- ijtimoiy axvoli.

II.1. Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli

Xorazm davlati qadimdan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik rivojlangan xududlardan biri bo'lgan. Qadimgi davrlarda bu xududning rivojlanishining asosiy omillardan biri buyuk ipak yo'lining bu xududdan o'tganligi edi. Xorazmshohlar davlati davrida –yirik siyosiy birlashmaning vujudga kelishi bilan davlatning siyosiy mavqei oshdi. Bu esa o'z navbatida hunarmandchilikning, savdoning rivojlanishiga, shaharlarning yuksalishiga zamin yaratdi. Ulkan mintaqada siyosiy yaxlitlik va barqarorlikka erishilishi natijasid ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida ham ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Arxeologik izlanishlar, yozma manbalar guvohligiga ko'ra sun'iy sug'orishga katta e'tibor berilib, vohalar imkonidan iloji boricha keng foydalanishga harakat qilingan. Natijada dehqonchilikni rivojlanishida uzilish bo'lmagan. Turli hil qishloq ho'jalik mahsulotlari yetishtirilgan. Ulardan yuqori hosil olingan. Shaharlarda hayot qaynab, savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlangan. Mamlakatda ishlab chiqarilgan turli xildagi gazlamalar, zargarlik buyumlari, kiyim-kechaklar, gilam, poyondozi, teri, jun, yog'moy, sovun, qurol-aslaha, egar-jabdug'lar, ho'l meva, quruq meva, ipakliklar, javohirlar va boshqa ko'plab mahsulotlar ham ichki bozorda, ham tashqi bozorda xaridorgir edi. Albatta, bunda tegishli davlat idoralarining hissasi ham katta bo'lgan. Hunonchi, doim bo'lganidek muxtasiblar bozorlardagi narx-navo, mahsulotlarning sifati, toshu tarozuning ahvolidan xabardor bo'lishni to'xtatmaganlar. Karvon yo'llarida to'xtash joylari, suv omborlari, havzalari qurilgan yo borlari ta'mirlangan, katta karvonlarni qo'riqlab borishga hatto sultonning shaxsiy pahlavonlari ham jalb etilgan.

Xorazmshohlar davlati markazi –Gurganj yirik savdo va madaniy markazga aylangan. Shuningdek, Xazarasp, Kat, Xushmusan, Darg'on, Savag'on, Mang'ishloq, Nuzkat kabi shaxarlari obod shaxarlar qatoriga kirgan. Xorazmshohlar davlatida raiyat, ya'ni oddiy aholining ijtimoiy turmush tarzi yashi bo'lishi uchun hukmdorlar alohida ahamiyat berganlar. Jumladan, Xorazmshoh Takash o'z farmonlaridan birida

raiyatga nisbatan adolatli bo'lishga, dehqonlarning manfaatini himoyaga qilishga, soliqlarni olish jarayonida qonunlarga to'liq rioya etishga amr qilgan. Jaloliddin Xorazmshoh ham urush natijasida qiyin ahvolga tushib qolgan aholini soliqlardan ozod etgan¹.

Xorazmshohlar davrida dehqonlarning turmush tarzi ancha yuqori bo'lgan. Xukmdorlar va iqto egalari ham dehqonchilikdan yuqori hosil olish uchun dehqonchilikka ko'p mablag' sarflab, qishloqning iqtisodiyotiin qo'tarishga harakat qilganlar. Takashning munshiysi –shaxsiy kotibi Muxammad Bag'dodiy At-tasviri ila-t-tarassul (Muxim nomalar bitish yo'l-yo'riqlari) asarida o'sha davrdagi axvolni yozib qoldirgan.

Bu davrdagi voqea-hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va to'g'ri xolis xulosalar chiqarishi mumkin bo'lgan inson SHahobiddin An-Nasaviy Sulton Muhammadning hukmronligini yuksak baholab shunday deydi: «Uning amalga oshirgan ishlari nihoyatda ulug' edi, otasi unga Xuroson va Xorazm hukmdorligini meros qoldirdi, u bunga Iroq va Mozandaronni ham birlashtirdi. SHu bilan birga, qo'l ostiga Kirmon, Kesh, Seyiston, G'ur, O'azni, Bomiyon mamlakatlarini, Hindistonning vodiylariga qadar maskanlarni qo'shib oldi. Bu ishlarning hammasini qilichlar qindan chiqarilmasdan, hatto qinlar yelkalarga osilmasdan amalga oshirildi, bu mamlakatlarni ortiqcha kuchsiz, kurashsiz, zo'ravonlik va vayronagarchiliksiz, faqat tahdid va qo'rqitish bilan bosib oldi. U o'z qo'l ostiga to'rt yuzga yaqin shaharlarni birlashtirdi. Boshqa birov bo'lganda bu darajada muvaffaqiyatga erishishi qiyin kechardi, u esa bir og'iz so'z bilan qo'l ostiga shuncha miqdordagi mulkni to'pladi»².

Anushteginlar davrida madrasalar barpo etish, kutubxonalar ochish, ularni kitoblar bilan to'ldirish, iste'dod egalarining boshini silash, asrab-avaylash odati saqlanibgina qolmay, yanada rivoj topdi. Ziyo maskani bo'lmish kutubxonalar faoliyatiga katta e'tibor berilgan. Masalan, Buxoro viloyatidagi shaharlardan birida fuqarolar, ya'ni umumiy kutubxona mavjud bo'lib, unda saqlanadigan qo'lyozma asarlar g'oyatda noyob hisoblangan. Xuddi shunday kutubxonalar o'lkaning boshqa yerlarida ham, masalan, Xorazmda bo'lgani ma'lum. Madrasalarga kelsak,

¹ Бунёдов З. Хоразмшоҳлар – Ануштакинлар давлати. – Т., 1998, 48-бет.

² Ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди. – Т., 1999, 16-бет.

manbalarda yozilishicha, bunday bilim maskanlari saltanat markazi Xorazmdan tashqari Nishopur, Isfahon va boshqa shaharlarda ham qad ko'targan. Ularda o'qish jarayoniga juda katta mas'uliyat bilan qaralganini shundan ham bilib olsa bo'ladiki, Madrasa rahbari va mudarrislar oliy hukmdor yo uning joylardagi noibining maxsus buyrug'i bilan tayinlanganlar. Chunki har qanday jamiyat, u qanchalik turli imkoniyatlarga ega bo'lmasin, agar shu imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga qodir mutaxassislar bo'lmas ekan, ular og'izda qolaveradi. Mutaxassislar esa tarbiyalanadi, parvarish etiladi. Xorazmshohlardan Otsiz, Takashlarning shu ma'nodagi buyruqlarini tahlil qilarkanmiz, ular mazkur haqiqatni juda to'g'ri anglaganliklari namoyon bo'ladi. SHuning uchun ham ular ta'lim va tarbiya, fan sohalariga mutasaddilarning ilmi, iymonli, hurmatli, halol bo'lishlariga katta e'tibor bilan qaraganlar. Mazkur siyosat o'z mevasini ham bergan. Bahoviddin Marvaziy, Abu Ali Hasan Buxoriy, Zahiriddin G'aznaviy, Ismoil Jurjoni, Faxriddin Roziy, Maxmud Zamahshariy, Abulfath Xorazmiy, Abulqodir Jurjoni, Sirojiddin Xorazmiy, Rashididdin Votvot, Sayfi Isfarangiy, Ziyxo'jandiy, Najmiddin Kubro, Majididdin Xorazmiy kabi o'nlab matematiklar, yulduzshunoslar, tabiblar, tarixchilar, shoirlar, faylasuflar, adiblar, tilshunoslar, mutassavvuf olimlar shular jumlasidandir. Albatga, biz va hamkasblarimiz mazkur ro'yxatni yanada davom ettirib, ularning har biri haqida ko'plab qog'oz qoralashimiz mumkin. Ammo bu alohida tadqiqot uchun mavzu bo'lgani sababli quyida ularning ba'zi birlarining e'tiborga molik jihatlariga diqqatni jalb etmoqchimiz. Qutbiddin Muhammad va Otsiz zamonlarida mashhur tibbiyot olimi Sayyid Ismoil Jurjoni faoliyat ko'rsatib, bir qator qimmatli asarlar yaratgan. Ular orasida Qutbiddin Muhammadga bag'ishlangan «Zahirayi Xorazmshohiy» asari alohida o'rin egallaydi. Bu asarning qimmati shu qadar bo'lganki, Jolinus (Galen), Muhammad Zakariyo, Ibn Sino, Abu Sahl Masihiy asarlari bilan bir qatorda tibbiyot sohasidagi eng muhim asar va manbalardan biri sifatida qabul qilingan. O'n ikki jildidan iborat bu asar tibbiyotning barcha yo'nalishlari, tashrih, oddiy va murakkab dorilar haqidagi tadqiqotlarni o'z ichiga olgan. U arab va turk tillariga tarjima qilingan. Ismoil Jurjoniining eng katta xizmatlaridan biri shundaki, u Ibn Sinodan keyin tibbiyot sohasidagi barcha yo'nalishlarni yangi

tadqiqotlar asosida qaytadan bayon qilib chiqqan. Olim faoliyatining biz uchun qadrlı tomonlaridan yana biri shundaki, Ibn Sino yurtimizdan «bir chiqib» qolgan yagona buyuk tibbiyot olimi emas, balki bu soha undan keyin ham bizda yuksak darajada taraqqiy qilib kelganligi ma'lum bo'ladi. Zero, o'tmishdagi olimu fozillarimiz ilmu tafakkurga doimo sodiqpik bilan xizmat qilib kelganlar. Ularning sodiqlik to'g'risidagi tushunchalari vatanga nisbatan ham yuksak darajada edi. Buni biz mashhur mutasavvuf olim va shoir Najmiddin Kubro misolida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ulkan hududda markazlashgan davlatning tashkil topganligi turli xalqlar o'rtasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalarni nihoyatda rivojlanishiga olib keldi, o'zaro urushlarga chek qo'yilib, xalqning tinchligi ta'minlandi. Mirzo Ulug'bek bu holatni shunday ifodalaydi: «Mo'tabar tarixlarda bitilmish va zikr etilmishkim, Sulton Muhammad Xorazmshoh zamonida Eron va Turon davlati bag'oyat osoyishtalikda va solim edi. Chunonchi, agar ko'zi ojiz kampir qizil oltin to'la tashtni boshiga qo'yib Mashriqdan Mag'ribga jo'naydigan bo'lsa, biror jonzot unga daxl qilmagan. Shoh shu darajada kuchaydiki, mamlakatda birorta ham o'g'ri qolmadi»¹.

Mo'g'ullar bosqini arafasida Xorazmda bo'lgan arab sayyohi va geografi Ibn Yoqut ham Xorazmning yuksak darajada taraqqiy etgan o'lka ekanligini qayd qilib o'tgan edi.

G'arb, xususan, rus tarixchilari Sulton Alouddin Muhammad hukmronligi davrini o'ziga xos «Renessans» davri, ya'ni «Xorazm Uyg'onish» davri deb ataganliklarini hisobga olsak, uning naqadar buyuk hukmdor bo'lganligini ko'ramiz.

Sulton Alouddin Muhammadning yuksak madaniyatli va ma'rifatli shaxs bo'lganligi shubhasizdir. U yoshligidanoq saljuqiylar davlati poytaxti Marvda, shuningdek, o'sha davrda SHarqning eng go'zal va katta shahari hisoblangan xorazmshohlar poytaxti Gurganjda zamonasining buyuk allomalaridan yetarli bilim olgan.

Xorazmshohlar davri fan va madaniyat yuksalgan, chunki Xorazm an'anaviy ravishda fan va madaniyat beshigi bo'lib kelgan. Shuningdek, Xorazmshohlar davrida

¹ Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Т., 1994, 125-бет.

iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiy etgan va davlat arboblari ham ilm-ma'rifatli bo'lgan. Xorazmshohlar zamonida ayni shu ikki omil o'zaro uyg'unlashgan edi. Xorazmshohlarning barchasi chuqur bilim egasi edilar. Ular ham dunyoviy, ham diniy bilimlarni egallaganlar. Masalan, Otsiz qasidalar, ruboiylar yozgan, ko'plab nazm namunalarini yoddan aytib bera olgan, san'at va ilmga katta ixlos bilan qaragan¹. Ruboiylaridan birida u shunday deydi: «Dunyo beliga urilgan tamg'a mening farmonimdir, falak qulog'idagi halqa mening paymonimdir. Bugun shunday saltanatni qo'lda tutsamda, do'st rizoligiga erishish mening iymonimdir». Takash, El-Arslon, Sulton Muhammad va xorazmshohlarning boshqa namoyandalari ham keng bilimli, she'r va san'atni qadrllovchi bo'lganlar, nazmda ijod qilganlar. Takash esa ayniqsa ud chalishni o'rniga qo'ygan.

Ulug' qobiliyatli sarkarda, mohir diplomat va ma'rifatparvar hukmdor bo'lmaganida, Sulton Alouddin Muhammad bu qadar yuksaklikka ko'tarilmagan, o'zi esa, buyuk hukmdorga, Markaziy Osiyo, jumladan Xorazm va Movarounnahr yuksak fan va madaniyat markaziga aylanmagan bo'lardi. Bularning barchasi Sulton Alouddin Muhammadning adolatli hukmdor hamda fan va madaniyat homiysi bo'lganligidan dalolat beradi. Uning vaziri Shahobiddin Xivaqiy o'z davrining eng bilimli, ma'rifatli davlat arboblari bo'lgan. Islom dini qonunlarini mukammal bilgan. Davlat boshqaruvining barcha masalalarida o'ziga xos mustaqil fikrga ega bo'lib, doim adolat yuzasidan ish ko'rgan. An-Nasaviyning yozishicha, Xorazmshoh Sulton Muhammad barcha ishlarda dono vaziri Shaxobiddin Xivaqiy bilan maslahatlashgan va uning fikrlariga quloq solgan.

Mo'g'ullar hujumi jarayonidagi voqealar bu ulkan saltanatning siyosiy asoslari ancha bo'sh ekanligini ko'rsatdi. Mamlakatdagi turli siyosiy kuchlar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash, xalq millat uchun og'ir kunlarda dushmanga qarshi yakdil bo'lib birlasha olmaslik, aksincha, o'zaro nizo, fisqu-fasodlarning yanada kuchayishi, oxir-oqibat saltanatni halokatga olib keldi. Zamondoshlarini va keyingi avlod vakillarini hayron qoldirib, juda qisqa muddatda (uch yil davomida) mag'lub bo'lgan bu ulkan saltanatning va uning hukmdori Xorazmshoh Sulton Muhammadning

¹ Бунёдов З. Хоразмшохлар – Ануштакинлар давлати. – Т., 1998, 123-бет.

achchiq taqdiri hozirgi avlod uchun achchiq saboq bo'lmog'i lozim. Zero, tarix saboq olish uchun manbadir.

II.2. Xorazmshohlar davlati inqrozi

Chingizxon bosqini arafasida xorazmshohlar sulolasi dunyoning eng qudratli siyosiy kuchlaridan biriga aylangandi. Xuddi shu davrda sharqda mo'g'ullarning yirik imperiyani tashkil qilingan edi. Bu esa, XIII asr o'ninchi yillari oxirida Sharqda ikki yirik kuch — xorazmshohlar va chingiziylarning o'zaro to'qnashishlari zaruriyatini shakllantirdi.

1215 yili Dashti qipchoq yurishida Xorazmshoh mo'g'ullarning Jo'chi boshchiligidagi harbiy qo'shiniga duch keladi. Mo'g'ullar bu yerlarda Chingizxonning buyrug'iga ko'ra markit qabilalariga zarba berish uchun yurish qilgan edilar. O'zaro to'qnashuvdan so'ng mo'g'ullar Chingizxondan Xorazmshohlar davlatiga nisbatan yurish qilish xususida hech qanday ko'rsatma olmaganliklari uchun orqaga chekindilar. Jurjoniyning yozishicha, sultonni har vaqt undan Sharqda joylashgan davlatlar qiziqtirar va uning Xitoy tomoniga harbiy yurish qilish niyati ham bo'lganligi aniq edi. Lekin Xitoy Chingizxon tomonidan o'sha yili olinganligini eshitgan sulton bu holni tasdiqlatish va qolaversa Chingizxon davlati xususida aniq ma'lumot olib kelish maqsadida sayidlar avlodidan bo'lmish taniqli zot Bahovuddin Roziyni o'z elchisi sifatida xon huzuriga jo'natadi. Bahovuddin Roziy boshchiligidagi elchilik guruhini Chingizxon Pekinda qabul qilib, ularga ijobiy munosabatda bo'ladi. Xorazm davlati elchilariga Chingizxon o'zaro ikki davlat o'rtasida tinchlik va do'stlik hukmdorlik qilishi lozimligini uqtirib, o'zini "SHarq hukmdori", Xorazmshoh Muhammadni "g'arb yerlarning egasi" deb ta'kidlaydi. Xitoy yerlariga endilikda yurish qilish nojoiz ekanligini anglagan Xorazmshoh o'z diqqat-e'tiborini yana janub hamda g'arb yerlariga qaratadi. 1217-yili Bag'dod xalifasi an-Nosir (1180-1225) sultonning Bag'dodni unga topshirishi va uning nomini xutbaga qo'shib o'qishini qat'iy rad etgach, Muhammad Xorazmshoh 100 000 kishilik qo'shin bilan abbosiylar xalifaligiga yurishni boshlab yuboradi¹. Xorazmshohlar tangalari va xutbalardan xalifa nomi chiqarib tashlanadi. Sulton

¹ Сабурова С. Хоразмшоҳлар-Ануштегинлар даврида Хоразм.-Т., 2008, 17-бет.

farmoniga ko'ra, termizlik shayx Olamulk at-Termiziy xalifa etib tayinlanadi. Sultonning yuqoridagi hatti-harakatlari ko'pchilik ulamolar, din peshvolari tomonidan ma'qullanmaydi. Ular sultonga barcha musulmonlar diniy rahnamo xalifa ustiga yurish qilish, islom dunyosida xorazmshohga nisbatan salbiy munosabat keltirib chiqarishini tushuntirmoqchi bo'ladilar. Ulamolar noroziligini hisobga olmagan Sulton ularning ko'pchiligini jazoga tortadi, hatto taniqli shayx Majididdin Bag'dodiyini qatl ettiradi. Bu hol diniy ulamolar, ruhoniylar, darveshlik guruhlar oldida sulton obro' e'tiborining pasayishiga va unga qarshi muxolif kuchlar safining kengayishiga olib keladi. Bag'dod yurishi tabiiy ofatlar tufayli muvaffaqiyatsiz yakun topadi.

Abbosiylar xalifaligiga muvaffaqiyatsiz yurishdan so'ng, 1218 yili Muhammad Xorazmshoh o'zining yangi poytaxti deb e'lon qilgan Samarqand shahriga kirib keldi va xutba, tangalardan esa xalifa nomini chiqarib tashlash xususida farmon berdi. O'sha yili Muhammad Xorazmshoh Chingizxon huzuriga yana o'z elchilarini yuboradi. Bunga javoban Chingizxon kechiktirmasdan qimmatbaho sovg'alar va mollar ortilgan katta karvon bilan o'z elchilarini xorazmshohlar sultoni huzuriga yuboradi. Sultonga mo'ljallangan qimmatbaho sovg'alar ichida Chingizxon o'lja olgan tuya o'rkachidek keluvchi oltin bo'lagi ham bor edi. Elchilarga xorazmlik taniqli savdogar Mahmud Yalavoch (Mahmud al-Aromiy) rahbar etib tayinlanib, yana 2 ta odam, buxorolik savdogar Alixo'ja va o'trorlik Yusuf qanqalar elchilik rutbasiga ega edilar. Sulton Muhammad bu elchilarni 1218-yil bahorida Buxoro shahrida qabul qiladi¹. Elchilar Chingizxon sultonning zafarli yurishlaridan xabardor ekanliklari, uni qudratli podshoh sifatida tan olib "o'zining eng ardoqli o'g'illari qatorida" ko'rishini bayon etishadi. Chingizxon o'z nomasida kuch-qudrati zafarini ko'rsatish ma'nosida Xitoy va qo'shni mamlakatlarni qanday kuch bilan egallaganligini ham aytib o'tadi. Elchilar nomasi shubhasiz sultonga ma'qul bo'lmaydi. Ayniqsa, mo'g'ul davlatining xonini, uni o'zining "o'g'li" qatorida ko'rish, bu sharq ustamonligida qaram qilish yoki o'z homiyligini olish degan ma'noni anglatishni sulton yaxshi tushunadi. Elchilarga

¹ Бунёдов З. Хоразмшоҳлар – Ануштакинлар давлати. – Т., 1998, 196-бет.

sulton javobi ma'lum emas, lekin o'sha tunda u o'z yoniga Mahmud Yalavochni chorlab bor haqiqatni bayon etishni, uning xizmatiga o'tib, maxfiy josus bo'lib xizmat qilishni buyuradi. O'z hayotidan xavfsiragan Mahmud Yalavoch, muarrix an-Nasaviyning yozishicha, "sulton eshitishni xohlagan" ma'lumotni aytib, sulton taklifiga ko'nadi. Xorazmshoh unga qimmatbaho javohir sovg'a qilib, Chingizxon bilan shartnoma tuzishga rozi ekanligini bildiradi. Chingizxon Mahmud Yalavoch guruhi xizmatidan, to'plangan ma'lumotlardan mamnun bo'ladi. Zero Yalavoch soxta "josus" rolini o'ynab, bor haqiqatni Chingizxonga yetkazgan edi. O'sha yiliyoq, ya'ni 1218-yili, Chingizxon sulton Muhammadga o'z minnatdorchiligini izhor etish va o'zaro shartnoma tuzish maqsadida katta savdo va elchilar karvonini jo'natadi. Ulkan savdo karvoni 450 ta musulmon savdogari va 500 ta tuyaga ortilgan qimmatbaho mollardan iborat edi. O'z davlati qudratini namoyon etish niyatida Chingizxon Tang'ut va boshqa davlatlardan o'lja olingan, janubiy Sibir va Xitoydan talab keltirilgan ajoyib, sara mollar bilan xurjunlarni to'ldirgan edi. Karvon bilan, shuningdek, Chingizxon elchisi, mo'g'ullardan bo'lgan Uxuna ham bo'lib, u Xorazmshohga Chingizxon nomasini olib kelayotgan edi. Noma jahon fothligiga da'vo qilayotgan Chingizxon nomidan buyruqnamo ohangda yozilgan edi. Unda jumladan, "... biz bundan buyon davlatlar o'rtasida tinchlik o'rnatilishini buyuramiz..." deyilgan edi. Noma Chingizxon ochiq-oydin jahon egasi bo'lishga ishtiyoqi baland ekanligidan dalolat berar edi.¹ Ushbu karvonda asli movarounnahrlik bo'lmish Umarxo'ja O'roriy, hammol Merokiy, Fahriddin Dizaqiy Buxoriy, Aminuddin Haraviy singari savdogarlar karvon sarbonlari hamda o'rda elchilari edilar. Karvon Urganch tomon yo'l olgan edi. Lekin xorazmshohlarning chegara viloyati O'tror yerlariga kirib kelishi bilanoq bu karvon ushlab qolindi. O'tror hokimi Inalxon (Inolchiq, uning forsiy taxallusi g'oyirxon edi) Turkon xotunning yaqin qarindoshi, Xorazmshohga yaqin shaxs bo'lgan. Inalxon, arab tarixchisi ibn al-Asir, an-Nasaviylarning yozishicha, Xorazmshoh ijazati bilan bu karvonlarni talashga buyruq berib, karvon a'zolarini josuslikda ayblaydi va ularni qirib tashlaydi. Talab olingan mollar Samarqand va Buxoro savdogarlari o'rtasida taqsimlanib,

¹ Машарипов О., Хоразмнома. –Т., 2007, 355-бет

Xorazmshoh ushbu savdo mollari pulini o'ziga oladi. Ba'zi tarixiy manbalarda esa, Inalxon garchi karvonni to'xtatish buyrug'ini olgan bo'lsa ham, o'z holicha uni qirib tashlagan deb ham aytiladi. Nima bo'lganda ham, Xorazmshohlar qo'pol siyosiy xatoga yo'l qo'yib, elchilarni qirg'in-barot qildiradilar. O'tror fojeasidan so'ng Chingizxon Ibn Kafrojiy Bug'roni ikki mulozim bilan Xorazmshoh huzuriga elchi etib jo'natdi. As-Subqiyning yozishicha, Chingizxon O'tror fojeasining aybdori Inalxonni tutib mo'g'ullar qo'liga topshirishini, elchilar o'limining sabablarini keskin tarzda so'raydi. Mo'g'ullar bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslik uchun O'tror hokimini Chingizxon qo'liga topshirish kerak degan taklifni ko'targan Jaloliddinning fikrini sulton rad etadi. Sulton buyrug'i bilan elchi bo'lmish Ibn Kafroj Bug'ro o'ldirilib, ikki mulozimning soqol-mo'ylovlari sharmandali tarzda qirib tashlanadi. Xorazmshoh mo'g'ullar bilan ertami-kechmi, urush bo'lishini yaxshi anglagan edi. Qolaversa, mamlakatda mo'g'ullar bostirib kirishi xususida turli mish-mishlar ham avj olgan edi. Nima bo'lganda sulton ham Chingizxonga shu yo'sinda dag'dag'ali javob berishga qaror qildi. Tarixchi Rashiddin o'zining «Jome at-Tavorix» asarida yozishicha Xorazmshohning ushbu dag'dag'asi va qilmishi «Chingizxonning yuragiga shunday ta'sir qildi-ki, unda ortiq chidam va toqat qolmadi. Nafrat o'ti bilan yonib u bir o'zi tepalikka ko'tarildi, bo'yniga belbog'ini tashlab, bosh yalang yerga yotib ibodat qildi. Uch kungacha yig'lab xudoga nola qilib yordam so'radi...»

Chingizxon 1219-yili o'z o'g'illari boshliq 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan anchadan beri puxta tayyorlanib, Xorazmshoh-Anushteginiylar davlati ustiga harbiy yurishni boshladi. Bu kuchlar yozni Irtish daryosi bo'yida o'tkazib, sentabr oyida chegaradan o'tadi. Chingizxonga uyg'ur ediquti (xoni) Baurchak, qarluqlar xoni Arslonxon va Olmaliq hukmdori Sig'noqteginlar ham o'z qo'shini bilan kelib qo'shildilar. Chegaradan o'tgan Chingizxon o'z qo'shini bilan janubiy qozoq cho'llarining Sirdaryoga tutashgan joyidagi O'tror shahri yaqinida to'lab uni 4 qismga bo'ladi. Chig'atoy va O'qtoy qo'shinining bir qismi bilan O'trojni qamal etib, egallash uchun qoldirildi. Ikkinchi qism esa Jo'chi boshchiligida Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent, Borchig'lig'kent, Sig'noq shaharlarni bosib olish uchun yuborildi. Uchinchi qismidagi besh ming chog'li qo'shinga Uloq no'yon va Suketu

Cherbi bosh bo'lib O'trordan janubga, Xo'jand va Banokatni egallash vazifasi topshirildi. Chingizxon o'zi bosh bo'lgan to'O'rtinchi, asosiy qism (uning tarkibida taniqli sarkardalar Jebe va Subutoy ham bor edi) Zarafshon vohasi tomon-Buxoro hamda Samarqandni istilo etish uchun yo'l oldi. Chingizxon Xorazmga yurish qilib O'tror (1219), Buxoro va Samarqand (1220)ni bosib oldi. Muhammad Movarounnahrni tashlab Xuroson tarafga qochdi. Chingizxonning 20 minglik qo'shinining tinimsiz ta'qib qilishi Muhammadga o'z kuchlarini qayta to'plab, nafasini rostdashga imkon bermadi. Kaspiy dengizining Ashur oroliga borib qolgan Muhammad qattiq betob bo'lib qoldi va umrining oxirida oldingi qarorini o'zgartirib, o'g'li Qutbiddin O'zloqshohning o'rniga Jaloliddin Manguberдини valiahd deb e'lon qildi. O'sha orolda 1221 yilda vafot etdi va shu yerda dafn etildi. Keyinchalik Jaloliddinning farmoyishiga ko'ra, Muhammadning jasadi Isfaxondagi xorazmshohlarning xotirasiga qurilgan maqbaraga ko'mish uchun Ardahn qal'asiga keltirilgan.

Mo'g'ullar 1221 yilda Xorazmshohlar poytaxti Urganchni 5 oylik qamaldan so'ng istilo qildilar. Jaloliddin Manguberдинing mardonvar qarshi harakatlari ham mo'g'ullarning bosqinchiik harakatlarini to'htata olmadi. Jaloliddin Manguberdi to umrining oxirigacha Xorazmshohlar davlatini qayta tiklash, mo'g'ullardan ozod etish istagi bilan harakat qildi. Lekin uning barcha tadbirlari o'z natijasini bermadi. O'sha davrlarda yaratilgan barcha yozma manbalarda Jaloliddin Manguberдинing botirliligi , mardligi, jarosatlari haqida yozib qoldirilgan.

XIII asrning boshlarida Xorazmshohlar saltanati qo'shinining umumiy soni Chingizxon harbiy kuchiga nisbatan birmuncha oshiqroq edi. Xorazmshoh hokimiyati siyosiy, xususan, ma'muriy boshqaruv jihatidan mustahkam emas edi. Chunki, mansabdorlar davlat tang ahvolga tushib o'z vazifalarini tashlab ketar, podshoga itoatsizlik qilar, o'zboshimchalik bilan o'z bilganlaricha yo'l tutar edilar. Hatto ayrim viloyat hokimlari Xorazmshohga nomigagina bo'ysunib, amalda deyarli mustaqil edi. Buning ustiga Sulton oliy dargohi ichida kuchli nizo hukm surardi. Ayniqsa, Turkon xotun, ya'ni «turklar onasi» nomi bilan shuhrat topgan Sulton Muhammadning volidasi qo'shinining oliy sarkardalari hisoblangan qipchoq

oqsuyaklari bilan urug‘-qabila aloqalari orqali mahkam bog‘langan edi¹. U o‘z qabiladoshlari manfaati yo‘lidasaroyda ko‘tarilgan barcha fitnalarga boshchilik qilar, hatto ularda shohga qarshi adovat ruhini uyg‘unlashtirib qo‘ygan edi. Ichki nizo, boshboshdoqlik va fuqarolarning noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti inqirozga yuz tutgan edi. Bunday o‘ta xavfli vaziyatni bartaraf etish maqsadida Sulton Muhammad o‘z hukmronligining so‘ngida «*Davlat kengashi*»ni ta’sis etadi. Kengashga 6 nafar bilimdon vakillar jalb etiladi. Unda eng dolzarb masalalar muhokama etilib, qaror qabul qilinsa-da, ammo u amalda ijobiy natija bermaydi. Ana shunday vaziyatda u jangari mo‘g‘ul qabilalarining Chingizxon boshliq bosqiniga duchor bo‘ladi.

Chingizxonning bosqini 100 yildan ortiq vaqt davomida Markaziy Osiyoda hukmron bo‘lib kelgan Xorazmshohlar davlatining tanazazuli va tarix sahnasidan ketishiga sabab bo‘ldi.

II. 3. Mug‘ullar istilosining Markaziy Osiyo iqtisodiy hayotiga ta’siri

Mo‘g‘ullarning Markaziy Osiyoga hujumi ko‘plab shahar va qishloqlar talon-taroj etilib vayron qilindi. Mo‘g‘ullarning kuchli zarbasiga uchragan ba’zi shaharlar, masalan, O‘tror, Sig‘noq, Borchilig‘kent va boshqalar umuman uzoq vaqtgacha dasht-biyobonlarga aylanib qoldi. Shu davrda yashagan arab tarixchisi Ibn al-Asir (1160-1244) mo‘g‘ul bosqini xususida shunday deb yozgan edi: “Ular (ya’ni mo‘g‘ullar) hech kimga shavqat qilmadilar, aksincha xotinlar, bolalar, erkaklarni o‘ldirdilar, homilador ayollarning qorinlarini yorib, tug‘ilmagan go‘daklarni nobud qildilar... Bu musibat to‘lqinlari turli tomonlarga tarqaldi va uning fojeasi umumiy bo‘lib qoldi hamda u shamol bulutlarni turli tomonga haydagani kabi butun viloyatlarga yoyildi. Xitoy chegaralaridan bir xalq chiqib Turkistondagi Qashg‘ar va Bolasog‘un kabi viloyatlarni, Movarounnahrdagi Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarini vayron etib, qirg‘in qilib, talon-taroj qilib egalladi. Tatarlar hech qaysi

¹ Бунёдов З. Хоразмшоҳлар – Ануштакинлар давлати. – Т., 1998, 212-бет.

shaharlarni omon qoldirmadilar ketayotib hamma yerni vayron etdilar. Ular nimaniki yonidan o'tgan bo'lsalar o'zlariga yoqmagan barcha narsalarga o't qo'ydilar"¹.

Mo'g'ullar istilosidan so'ng Movarounnahr, Xorazm, Xurosonning gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari tamomila halokatga uchradi. Sharqda dong'i ketgan qadimiy va obod shaharlar, jumladan Samarqand, Buxoro, Urganch, Xo'jand, Marv, Termiz, Balx, Nishopur va boshqa shaharlar xarobazorga aylantirildi. Marvdagi mashhur suv bilan shaharni ta'minlovchi-Sultonband, Balxob daryosidagi Bandi amir, Samarqand shahrini suv bilan ta'minlaydigan yagona to'g'onlarning hammasi Chingizxon buyrug'iga ko'ra buzib tashlandi. Jumladan Balx va uning atroflari 6 oy mobaynida suv ofatini boshdan kechiradi. Samarqandning asosiy aholisi, buxoroliklarning ko'pchiligi, Urganch va Marv kabi ulkan shaharlar ahlining barchasi ona shaharlarini yo tark etdilar yoki qirib tashlandilar. Istilochilar ilk bora yuqori madaniyatli aholining ilm-fan, me'morchilik sohalaridagi yutuqlarini, yuksak darajadagi hunarmandchilik, tijorat, sug'orma dehqonchilikni shu o'lkaga kelib ko'rdilar. Bosqindan so'ng sharqqa dong'i ketgan zargarlik, qurol-aslaha yasash, nafis matolar to'qish, naqshinkor nimchalar ishlab chiqarish barham topdi. Vohalarda suvsizlikdan yerlar qaqrab dehqonchilikka qiron keldi. Bir necha asrlik tarixga ega bo'lgan mashhur ipak savdo yo'llari izdan chiqdi. Ilm-fan, madaniyat namoyondalari xor-zor etildi. Tirik qolgan aholi vayronalarga, zulm va zo'ravonlikka duch kelgan.

Mahmud Yalavochni Movarounnahr noibi etib tayinlangan. Uning qarorgohi esa Xo'jand shahrida bo'lgan. Shubhasiz, Mahmud Yalavoch yirik va boy savdogar bo'lib, manbalarning xabariga ko'ra uning boyligi shunchalik ko'p bo'lganki, hatto u butun Movarounnahrdan olinadigan soliqni oldindan to'lashi ham mumkin edi. Uning ixtiyorida mo'g'ullarning tayanchi bo'lgan soliq yig'uvchi mo'g'ul bosqoqlari, mahalliy hokimlar, dorug'alar-harbiy ma'murlar hamda bir muncha mo'g'ul harbiy otryadlari bor edi. Mahmud Yalavochga soliqlar tushumini muntazam nazorat etish o'lkada mo'g'ullarga qarshi g'alayon bo'lishini oldini olish ma'suliyati yuklatilgan edi. Ko'pchilik aslzoda zodagonlar, savdogarlar, qisman ulamolar ham o'z jonlari va qolgan mol-mulklarini saqlab qolish borasida xiyonatkorona tarzda bosqinchilar

¹ Машарипов О., Хоразмнома. –Т., 2007, 349-бет

xizmatiga o'ta boshladilar. O'z navbatida o'lkada o'zlarining tayanch vositasi bo'lishlariga harakat qilgan mo'g'ullar ham bu toifadagi kishilarni qo'llab-quvvatlay boshladilar. Mo'g'ul xonlari va mahalliy zodagon, yer egalarining zulmi natijasida mehnatkash xalq endilikda ikki tomonlama ezila boshlandi. O'lponu soliqlarning miqdori tobora oshib bordi, undan tashqari esa aholidan yig'ib olinadigan turli to'lovu yig'imlar, jarimalarning soni haddan tashqari oshib keta boshladi. Yangi yer solig'ining nomi-"kalon" deyilib, u hosilning o'ndan bir miqdorida olingan. 1235-yilgi qurultoydan so'ng esa chorva mol boshidan olinadigan yalpi soliq-"qopchur" ta'sis etilgan. Unga ko'ra 100 tadan bir miqdorda chorva soliqqa to'lanar edi. (Bu soliq asosan mo'g'ullar turmush tarzi xususiyatini hisobga olgan holda joriy etilgan edi). "Yasoq"qa ko'ra, davlat xazinasiga uchun "shulen" deb nom olgan oziq-ovqat solig'i joriy qilingan. Bu soliqqa ko'ra har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har mingta otdan bir biya hisobidan olingan. Soliqlar asosan xonlar tomonidan barot (ijara) tarzida oldindan xazina uchun undirilib, so'ngra aholidan zo'ravonlik bilan oshirilgan miqdorda undirilar edi. Ayniqsa, hunarmandlarning ahvoli og'ir bo'lgan ularning o'z yurtlarida tirik qolganlari mahalliy xonlarning mulki sifatida ishlatilinar edi. Masalan, 1262-yil Buxoroda bo'lgan Xubilay qooning vakili bu yerda 5000 ta hunarmand Botuxonga, 3000 tasi malika Siyurko'kteniga (Xubilay va Munqalarning onasi) tegishli bo'lganligini qayd etadi¹. 1246-yil Mo'g'ulistonda bo'lgan sayyoh Plano Karpini eng yaxshi hunarmandlar xoqon xizmatida ekanligini va ularga qullarcha munosabatda bo'lishlarini qayd etib o'tadi. Bu guruh shaharlik hunarmandlarga esa kundalik ovqat berilib, ularga darhaqiqat qullarcha munosabatda bo'lingan bo'lsa, ikkinchi guruh shaharlik hunarmandlarga esa katta soliqlar solingan. Mo'g'ullarga qarashli bo'lgan harbiy qurol-aslaha va anjomlar ishlab chiqaradigan ustaxonalar-"korxona" nomini olgan bo'lib, u yerdagi hunarmandlar esa qul darajasidagi kishilar hisoblanar edi. Hunarmandlar to'laydigan maxsus soliqning nomi "tamg'a" deb atalgan. Mo'g'ullar, shuningdek, batamom huquqsiz qullar mehnatidan ham foydalanishar edi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida yer egaligi holati ham o'zgarib, yangi in'om etilgan yerlar mo'g'ulcha suyurg'ol nomini olgan.

¹ Бунёдов З. Хоразмшоҳлар – Ануштакинлар давлати. – Т., 1998, 228-бет.

Suyurg'ol hajmi jihatidan (unig tarkibiga juda katta yer maydonlari, suv havzalari, dasht-yaylovlar ham kirib ketar edi) iqtadan farq qilar edi. Bu davrda davlat, mulk (xususiy yerlar), vaqf (diniy idoralar ixtiyoridagi yerlar) yerlarda ko'p holda ijaraga chorakor dehqonlar mehnat qilishgan. Bir qism ijarador-o'rtahol dehqonlar esa muzoriylar deb yuritilgan. Buyuk hoqon hisoblangan O'gedey (1229-1241 yy.) davridayoq mo'g'ullar o'zlariga xizmat ko'rsatayotgan ayrim kishilar, katta yer egalari, savdogarlarga turli yorliq va payzalar bera boshladilar. Payza qimmatbaho metall (oltin, kumush) yoki jez, yog'och taxtalardan ishlangan bo'lib, unga no'yonning muhri qo'yilar edi. Bunday payzaga ega bo'lgan kishilar, shu jumladan, elchilar, soliq yig'uvchilar va boshqa shaxslar aholidan turli yig'im, to'lovlarni talab qilib olish huquqiga ega edilar. Ko'plab beriladigan payza egalari aholidan tekinga ot-ulov, yem-xashak, yotar-joy, oziq-ovqat talab qilishga haqli ham edi. Savdo yo'llarida joylashgan bekatlar "yom" (jom) deyilib, ularning xizmati va harajati mahalliy aholi bo'ynida edi. Bu bekatlar bo'ylab davlat ishlari bo'yicha ko'plab elchi, chopar, vakil va boshqalar o'tib, ularga xalq tekinga xizmat qilib, ularni ta'minlab turishi ham lozim edi. 1235-yildan boshlab hoqon farmoniga ko'ra, har bir yomning aloqa xizmati va harakati 2 ta tuman aholisiga yuklatildi. "Yomlar bo'yidagi aholida toqat va majol ham qolmagan edi",-deb yozgan edi Rashididdin. Mahalliy aholi-hunarmand, dehqon, chorvador, kim bo'lishidan qat'iy nazar umum hashar ishlarida qatnashishi va tekinga ishlab berishi shart edi. Mo'g'ullarning ichki xo'jalik hayotni savdo-sotiq sohasini bir oz jonlantirish borasidagi chiqargan past qiymatli tangalari aholi ichida o'z o'rnini topmadi. Aksincha, zo'rlik po'pisaga qaramay, 1232-yildan boshlab Samarqandda pul muomalasi tugatildi, savdo-sotiq ayriboshlov darajasiga tushib qoldi. Farg'ona, Shosh, Termiz va boshqa viloyatlarda mo'g'ul istilosidan so'ng pul zarb etish o'z-o'zidan tugagan edi. Natijada tez orada Movarounnahrda pul muomalasi butkul izdan chiqdi. Mislsiz jabr-zulm, aholining xo'rlik va qashshoqlik domiga tashlanishi, soliqlarning haddan ziyod o'sishi, mehnatkash aholining tinka madorini quritib yubordi. Aholi ichida mo'g'ullarning zo'ravonligi va istibdodiga qarshi norozilik harakati tobora kuchayib, bu norozilik ayniqsa, 1238-yilgi Mahmud Tarobiy qo'zg'olonida o'z aksini namoyon qildi. Bu ozodlik qo'zg'oloni 1238-yil

Buxorodan uch farsah (taxminan 18-21 km) uzoqlikdagi Tarob qishlog'ida boshlandi¹. Bu qo'zg'olonda mo'g'ullar va mahalliy zodagonlar zulmidan ahvoli og'irlashgan hunarmand, dehqon va kambag'al aholi, ayniqsa, faol qatnashadi. Qo'zg'olonga esa asli Tarob qishlog'idan bo'lgan g'alvir yasovchi hunarmand usta Mahmud Tarobiy boshchilik qiladi. Mahmud Tarobiy avval o'z qishlog'ida istilochilar zulmi, bedodligiga qarshi otashin chaqiriqlar bilan chiqadi. O'z atrofiga yig'ilgan qo'zg'olonchilarga murojaat etib: "Ey, haq toliblari, qachongacha kutamiz va intizorlik tortamiz. Ro'yi zaminni tangridan qo'rqmaydiganlardan pok qilmoq lozim. Kimning qanday qurolga qurbi yetsa, qilichmi, o'q-yoymi, kaltakmi, qo'lga olsin. Qo'ldan kelgancha tangridan qo'rqmaydiganlardan birontasini ham tirik qo'ymaslik lozim",-degan so'zlar ozodlik kurashiga xalqni da'vat etadi. SHu paytda SHerozdan kelgan harbiy anjomlar ortilgan karvon qo'zg'olonchilarning qurollanishiga yordam beradi. Qo'zg'olon kuch-qudrati oshib borayotganligini, xalq qo'zg'olonchilar tarafiga o'tib borayotganligini ko'rgan mo'g'ul no'yonlari Movarounnahr hokimi Mahmud Yalavochdan yordam so'rashga majbur bo'ladilar. Mahmud Tarobiy o'zining ko'plab tarafdorlari bilan Buxoro tomon yo'l oladi. Buxorolik aqoid (diniy ilm) olimi, mashhur shayx SHamsiddin Mahbubiy ham qo'lga qurol olib, o'z safdoshlari bilan qo'zg'olonchilar safiga qo'shiladi. Tarixchi Juvayniy Mahmud Tarobiy haqida shunday deb yozgan edi: "U akobir, boy-badavlat kishilarni haqorat qildi, sharmandasini chiqardi, o'ldirtirdi, ularning bir qismi esa undan qochib qutildi. U oddiy xalqqa va darbadarlarga, aksincha, iltifot va marhamat ko'rsatdi". Darhaqiqat Mahmud Tarobiy Buxoro ahliga muruvvat namunalarini ko'rsatdi. Buxorodan qochgan mo'g'ul harbiylari va buxorolik zodagonlar Karmanaga kelib panohtopgan edilar. Bu yerda ular ma'lum kuch to'plab, Mahmud Tarobiy ustiga harbiy yurishni boshlaydilar. Bundan xabardor bo'lgan Mahmud Tarobiy dushmanga qarshi kurashish maqsadida shahar chetidan Karmana yo'lga katta harbiy kuch bilan chiqadi. Ikki o'rtadagi qattiq jangdan so'ng istilochilar yengilib orqaga chekindilar. Qo'zg'olonchilar mo'g'ullarni to Karmanagacha quvib bordilar. Ushbu jangda mo'g'ullardan 10000 kishi qirib tashlandi. Lekin bu zafarli

¹ Жабборов И.М. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. -Т., 1999, 145-бет.

jangda qo'zg'olonchilar rahbarlari Mahmud Tarobiy va SHamsiddin Mahbubiyalar halok bo'ldilar. Qo'zg'olonchilar endilikda shahid ketgan Mahmud Tarobiyning o'rniga uning ukalari Muhammad va Alini rahbar etib saylaydilar. Lekin bu yangi rahbarlarning harbiy tajribalari yo'q, xalq ularni yaxshi tanimas, omma ichida ular nufuzga ega emas edilar. Bu esa qo'zg'olonning borishiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Oradan bir hafta o'tmay mo'g'ullarning Yulduz no'yon va CHag'an qo'rchi boshchiligidagi yangi qo'shini qo'zg'olonni bostirib uchun yetib keldi. Ikki tomonlama jangda Mahmud Tarobiy tarafdorlari butkul tor-mor qilinib, ikkala tomondan 21 mingdan oshiq jangchi halok bo'ldi¹.

Mahmud Tarobiy boshchiligidagi ushbu xalq ozodlik qo'zg'oloni xalqimiz ozodlik kurashlari tarixida o'ziga xos iz qoldirdi. U, avvalo, istilochilar va ular tomoniga o'tib ketgan mahalliy zodagonlarning umumiy zulmiga qarshi ko'tarilgan kurash edi. Bu ozodlik qo'zg'oloni mo'g'ul istilochilariga ular qanchalik shavqatsiz tuzum o'rnatmasinlar, xalq hamisha o'z ona vatani ozodligi yo'lida kurashdan cho'chimasligini namoyon qildi. Mo'g'ullar bu qo'zg'olondan so'ng bosqoqlar tomonidan yig'iladigan soliq va o'lponlarni tartibga keltirishga harakat qildilar. Mahmud Torobiy qo'zg'olonidan keyin CHig'atoy qo'zg'olonni bostirishda sustkashlik qilgan, degan maqsadda, Mahmud Yalavochni o'z amalidan chetlashtirib, uni Movarounnahrda chiqartirib yubordi. Tez orada xoqon uni Dasin (Pekin)ga shahar noibi etib jo'natadi. Shundan so'ng Movarounnahr noibi hamda ijaradori sifatida Mahmud Yalavochning o'g'li Ma'sudbek tayin etiladi. U o'limiga qadar (1289 y.) shu lavozimni egallab turadi. XIII asr II-yarmida XIV asr I-yarmida xo'jalik, iqtisodiy hayotdagi siljishlar, savdo-sotiqning rivojlanishi, qolaversa, Chig'atoy mo'g'ullarining tobora o'troq hayotga moslasha borishi, bosqinchilik vaqtida tanazzulga yuz tutgan madaniy hayotning nisbatan jonlanishiga olib keldi. Avvalo shaharsozlik bilan bog'liq binokorlik va me'morchilik yo'lga qo'yila boshlandi. Mahalliy diniy ulamolar va dunyoviy zodagonlar, gohida mo'g'ul zodagonlarining ba'zilar qurilish ishlariga homiylik qila boshlashdi. Me'morchilikda alohida o'rin tutgan ganchkorlik, g'isht o'ymakorligi, koshinpazlik, me'moriy

¹ Машарипов О., Хоразмнома. –Т., 2007, 345-бет.

xattotlik qayta tiklandi. Movarounnahr, Xorazmda mahalliy binokorlar ishtirokida xonaqo, maqbara, masjid, madrasa, saroy, minoralar qad ko'tara boshladi. Shu davrlarda barpo etilgan ko'pgina me'moriy obidalar u yoki bu ko'rinishda hozirgi kunlargacha yetib kelgan.

II.4. Mavzu yuzasidan dars ishlanma

MA'RUZA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Mavzu	Xorazmshohlar davlati
--------------	------------------------------

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-2 soat</i>	Talabalar soni: 25-30 gacha
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Anushtegin–Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi. 2. Davlatning boshqaruv tizimi 3. Xorazmshohlar davlati inqrozi
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi: Xorazmshohlar davlati haqida ma'lumot berish</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Anushtegin–Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi haqida ma'lumot berish; • Davlatning boshqaruv tizimi haqida ma'lumot berish; • Xorazmshohlar davlati inqrozi haqida ma'lumot berish;	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> • Anushtegin–Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi; • Davlatning boshqaruv tizimi haqida ma'lumot berish; • Xorazmshohlar davlati inqrozi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar;
<i>Ta'lim berish usullari</i>	<i>Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, savol, javob, tushunchalar taxlili ped. texnologiyasi,</i>
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	<i>Ommaviy, jamoaviy</i>
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	<i>O'quv qo'llanma, proektor, qo'shimcha adabiyotlar</i>
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	<i>O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya</i>
<i>Monitoring va baholash</i>	<i>Og'zaki nazorat: savol-javob</i>

1.2. “Xorazmshohlar davlati ” ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlar i va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Mashg’ulot mavzusi, uning rejasi va foydalanadigan adabiyotlari bilan tanishtiradi. (1-ilova). 1.2. Talabalar o’quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi (3-ilova).	Tinglaydilar. Tinglaydilar Talabalar savollarga javob beradilar.
2-bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo’yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi (4-ilova) 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollarni beradi? (5-ilova) Mavzu yuzasidan slaydlardan foydalaniladi. Talabalarga mavzuning asosiy jihatlar takrorlanadi. (6-ilova)	Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar. Tinglaydilar, yozadilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daq.)	3.1. Mavzu bo’yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2. Uyga vazifa: “Tushunchalar taxlili” ped. texnologiyasi asosida ma’lumotlar to’plash. (6-ilova)	Savollar beradilar. Uyda bajaradilar.

1-ilova

Mavzu: Xorazmshohlar davlati.

Reja :

1. Anushtegin–Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi.
2. Davlatning boshqaruv tizimi
3. Xorazmshohlar davlati inqrozi

O’quv mashg’ulotining maqsadi: Xorazmshohlar davlati haqida ma’lumot berish

O’quv faoliyatining natijasi: Xorazmshohlar davlati haqida ma’lumotga ega bo’ladilar

Adabiyotlar

- Masharipov O., Xorazmnoma. –T., 2007.
- Saburova S. Xorazmshohlar-Anushteginlar davrida Xorazm.-T., 2008
- Bunyodov Z. Anushtegin-Xorazmshohlar davlati. –T., 1993.

Ma’ruzada 5 dan 2 ballgacha qo’yiladi. Reyting bo’yicha natijalar bahosi:

- 5 ball - «a’lo»
- 4 ball - «yaxshi»
- 3 ball - «koniqarli»
- 2 ball - «qoniqarsiz»

Jonlantirish uchun savollar:

- “Xorazm” so’zining ma’nosi haqida nima bilasiz?
- Qadimgi Xorazm davlatiga qaysi sulola boshqargan.
- Xorazm xududida qanday tarixiy obidalar bor?

1-reja

1017-yilda Mahmud G’aznaviy tomonidan zabt etilib, o’z mustaqilligidan mahrum bo’lgan Xorazm ko’p vaqt o’tmay (1040) Saljuqiylar davlatiga qaram bo’lib qoladi. Saljuqiylar hukmdori **Malikshoh** o’z ma’murlaridan **Anushteginni** Xorazmga noib qilib tayinlaydi. Anushtegin vafotidan so’ng Xorazmda uning vorisi **Qutbiddin Muhammad** (1097–1127) noiblik qiladi. Garchi u «xorazmshoh» unvonini tiklab, bunday jarangdor nom bilan ulug’lansa-da, Saljuqiylar davlatining sadoqatli noibiligicha qolgan edi. Xorazmning mustaqilligi Qutbiddin Muhammadning o’g’li **Otsiz** (1127–1156) nomi bilan bog’liqdir. Dastavval Otsiz turkman va qipchoqlarni o’ziga bo’ysundiradi. Xorazm bilan iqtisodiy jihatdan bog’liq bo’lgan Sirdaryo etaklari va Mang’ishloq yarimorolini egallaydi. Otsiz Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o’rta oqimiga qadar bo’lgan yerlarda Xorazmshohlar davlatining poydevorini barpo etadi. Otsizning siyosatini uning vorislari **Elarslon** (1156–1172), **Sultonshoh Mahmud** (1172) va **Takash** (1172–1200) davom ettiradilar. XII asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyat yanada keskinlashadi. **1153-yilda Sulton Sanjarga** qarshi ko’chmanchi o’g’uzlar isyon ko’taradilar. Buning oqibatida Saljuqiylar davlati keskin zarbaga uchrab, zaiflashib qoladi. Dastavval undan **Kichik Osiyo** va **Kermon** ajralib

ketadi. So'ngra Fors, Ozarbayjon va Xuroson viloyatlari mustaqil bo'lib oladi. Bunday siyosiy vaziyatda, shubhasiz, Xorazmning hukmronlik doirasi kengaytirilib, uning mustaqilligi yanada mustahkamlanadi. Xorazm davlati, ayniqsa, Otsizning nabirasi Takash davrida juda kengayadi. **1187–1193-yillarda u Nishopur, Ray va Marv** shaharlarini zabt etadi. **1194-yilda** esa saljuqiylar sultoni **To'g'ulga** qaqshatqich zarba berib, Eronni Xorazmga bo'ysundiradi. Takashdan so'ng uning o'g'li **Alovuddin Muhammad** (1200–1220) ham Xorazm davlatini kengaytirish siyosatini davom ettiradi. **1206-yildan** boshlab Movarounnahrni qoraxitoylarning qoraxitoylar mag'lubiyatga uchraydi. Yettisuvgacha bo'lgan yerlar Xorazmshohlar davlati tasarrufiga o'tadi. **XIII asr boshida** Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylangan edi. Uning shimoli g'arbiy va g'arbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan janubi g'arbda Iroqqa qadar borar edi. Janubi sharqiy hududlari G'azna viloyatidan, shimoli sharqiy chegarasi esa Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o'tar edi. Sharqdagi bu ulkan davlatning poytaxti **Urganch** shahri edi. Hukmdor Muhammad Xorazmshoh esa «**Iskandari soniy**» deb ulug'langan. Uning saroyida 27 hukmdor va ularning vakillari doimo itoatda bo'lgan. Mamlakat qoraxitoylar zulmidan qutulgan bo'lsa-da, mehnatkash aholining ahvoli yengillashmadi. Aksincha, xorazmshohlarning harbiy urishlari, soliq siyosatidagi beboshlik, amir va ma'murlarning jabr-u zulmi mamlakat fuqarolarining moddiy ahvolini g'oyat og'irlashtirdi, xalq xo'jaligini yanada zaiflashtirdi. Bu, shubhasiz, shahar va qishloq aholisining xorazmshohga qarshi noroziligini oshirdi. Natijada, **1210-yilda** O'tror aholisi, **1212-yilda** esa samarqandliklar qo'zg'olon ko'tardilar. Muhammad Xorazmshoh qo'zg'olonlarni shafqatsizlik bilan bostiradi. Viloyat hukmdorlarining isyonlari, xalqning ko'pgina tabaqalari noroziligi, qo'shin va saroyda fitnalarning avj olishi davlatning beqarorlik holatini yaqqol ko'rsatar edi. Shuning uchun qaramligidan ozod etishga kirishildi. **1210-yilda** Talos vodiysidam bu davlat ko'p yashamadi.

Hukmdorlari

Anushtegin -1077-1097

Qutbiddin Muhammad-1097-1127

Jaloliddin Otsiz-1127-1156

Elarslon-1156-1172

Alouddin Takash-1172-1200

Muhammad Xorazmshoh-1200-1220

Jaloliddin Manguberdi-1220-1231

2-reja

Anushteginiylar davlat boshqaruvi ikki tizimdan: dargoh va devonlar majmuidan iborat bo'lgan. Dargohda hojib, ulug' hojib yuqori mavqeni tutgan. Ulug' hojib hukmdorning eng yaqin kishilaridan biri hisoblangan. Hojiblarga g'oyatda muhim vazifalar, masalan, maxsus muzokaralar olib borish va, hatto, vazirlar faoliyatini taftish etish kabilar topshirilgan. SHuningdek hojib lavozimidagi amaldorga butun bir viloyat noibligi topshirilgan. Dargohdagi barcha xo'jalik xizmatlari faoliyatini boshqarish ustozdorga yuklatilgan. Sulton chaqirganda birinchi hozir bo'ladigan shaxs ham ustozdor hisoblangan. Oliy farmon olgan ustozdor shunga ko'ra tegishli xizmatlarga buyruq bergan va uning gapini ikki qilish bo'lmagan. U dargohning barcha masalalari bilan shug'ullangan va bundan tashqari bosh xazina mablag'laridan ham istifoda etgan holda nonvoyxona, oshxona, otxona, saroy xizmatchilarining xarajatlarini qoplar edi. SHuningdek, u ushbu mablag'dan maosh berish va boshqa xarajatlar uchun ham foydalangan. Amiri oxur sultonga tegishli otlar parvarishi yuklatilgan. Otlarning soni esa 30 minggacha bo'lgani ma'lum. Podshohona ovlarni o'rniga qo'yish tadbirlari-amiri shikor uyushtirgan. Saroydagi muhim xizmatlardan yana biri bu tashtdordir. Garchi tashtdor yuvinish anjomlarini saqqovchi ma'nosini bersa-da, ammo aslida bu mansabni egallagan kishi sultonning eng yaqin kishilaridan biriga aylangan. Hukmdor unga o'zining eng maxfiy fikrlarini ham izhor qilishi mumkin edi. Qissadorlar- hafta davomida sultonga tushgan arzlar, shikoyatlarni yig'ib, juma kuni kechasi hukmdorga topshirardi. Keyin esa har bir arzchi yo shikoyatchiga tegishli javobini berardi. Bu mansabga ham har kim tayinlana berilmasdi. Zero, hukmdor bilan oddiy xalq o'rtasida aloqa bog'lab, raiyat ahvoli va zoridan xabardor qilib turish savobli ishini hamma ham halol bajara olmasligi tabiiy. Dargohda shuningdek chashnigir — sultonga beriladigan ovqat, ichimliklarni tekshirib ko'ruvchi, jomador, sultonning kotibi (davatdor), sharobdor, farrosh, bayroqdor (amiri alam), xos xizmatkorlar boshlig'i (maliki xavas) kabi xizmat va vazifalar ham bo'lgani ma'lum. Ijroiya ishlarini devonlar (vazirliklar) olib borib, bu tizim tepasida vazir (bosh vazir) turgan. Vazir ham hukmdorning eng yaqin kishilaridan, birinchi maslahatchisi sifatida gavdalanadi. O'z faoliyatida u faqat sulton oldidagina javobgar bo'lgan. Rasmiy tadbirlar, turli maqsaddagi muzokarlarda hukmdor nomidan ish tutgan. Unga barcha amaldorlar, noiblar, harbiylar bo'ysungan. Ishdan olish, ishga tayinlash, maosh, nafaqa tayinlash, xazina va soliq tizimini nazorat etish, mahalliy vazirlar hisobotini olish kabi qator vazifalar uning vakolatida bo'lgan. Devonlarga kelsak, ularning faoliyati saljuqiylar zamonasidagi tizimdan deyarli farqlanmagan. Insho yoki tug'ro devoni rasmiy hujjatlar, yozishmalarni tuzish bilan shug'ullangan. Moliya ishlari bilan istifo devoni, davlat nazorati tadbirlari bilan ishrof devoni, harbiy masalalar, chunonchi, qo'shinni qurol-aslaha bilan ta'minlash, qo'shin qismlari shaxsiy tarkibini nazorat qilish, harbiylarga ajratilgan yer-suv nazorati, harbiy ko'riklar o'tkazish kabilar bilan devoni arz yo jaysh shug'ullangan. Yana bir devon bo'lib u devoni xos deyilgan. Haqiqatan ham bu maxsus devon hisoblanib, hukmdor sulolaga tegishli yer-suv, mol-mulk, sulton mamluklariga maosh berish vazifalari bilan mashg'ul bo'lgan.

3-reja

Muhammad davrida Xorazmshohlar davlati shimolda Orol, g'arbda Kaspiy dengizigacha, janubda Iroq va G'aznagacha, sharqda Yettisuvigacha kengaygan. U mamlakatni kengaytirish siyosatini olib boradi. Dastavval u Hirot va uning atroflari hamda Xurosonning Xorazm davlati tasarrufiga kiritilmagan viloyatlarini zabt qilishga kirishadi. Ayniqsa, u qoraxoniylarga zarba berib, Movarounnahrni ular qo'lidan tortib olishga harakat qiladi. 1218-yil Chingizxon Muhammad huzuriga shaxsiy vakili Uhuna boshliq 500 tuyadan ortiq elchi va savdogarlar karvoni O'trorga kirib keldi. O'tror hokimi Inolchiq karvonni ushlab, elchilarni qatl ettirgan. Muhammadning davlatini yaxshi o'rgangan Chingizxon Xorazmga qaram xalqlarning noroziligidan, lashkarboshilar orasidagi nizolardan, Muhammadning onasi Turkon xotun qarindoshlari orasidan chiqqan amaldorlardan foydalanishi hamda Muhammadning mo'g'ullar hujumi xabarini amalga oshirgan noto'g'ri tadbirlari (har bir shahar o'z-o'zini himoya qilishi; raiyatdan 1 yil uchun 3 barobar xiroj yig'ishi) sababli muvaffaqiyatga erishdi. Chingizxon Xorazmga yurish qilib O'tror (1219), Buxoro va Samarqand (1220)ni bosib oldi. **1221-yilning qishida** 50 ming kishilik mo'g'ul askarlari hujum boshlab, Urganchni qamal qiladi. Urganchliklar dushmanning harbiy kuch va zirhli qurollarining ustunligiga qaramay o'z ona shahrini mudofaa qiladilar. Urganch bosqinchilar tomonidan talon-toroj qilinadi. Shaharning bosh ihota to'g'oni buzib yuboriladi. Urganchni suv bosib vayron bo'ladi. Zabt etilgan o'lka va viloyatlarni Chingizxon hali hayotlik chog'idayoq to'rt o'g'illariga taqsimlab berdi. Jumladan, *Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahr*ga **Chig'atoy** ega bo'ldi. Shunday qilib, mo'g'ullar bosib olingan viloyatlarni uluslarga taqsimlash asosida boshqarishga kirishdi.

5-ilova

1. Xorazmning mustaqillik uchun kurashlari va uning hukmdori Otsiz haqida gapirib bering.
2. Xorazmshohlar davlatining barpo etilishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Nima sababdan xorazmshoh «Iskandari soniy» deb ulig'langan?
4. Xorazmshohlar davlati nega zaiflashib qoldi?

TAYANCH SO'ZLAR LUG'ATI

Ўзбек тили	Рус тили	Инглиз тили
Millat	Национальность	Nationality
Huquq	Право	Rights
Madaniyat	Культура	Culture
Rivojlanish	Развитие	Development
Qadriyat	Ценность	Value
Ijtimoiy	Социальное	Social
Jamiyat	Общество	Society
Fuqaro	Гражданин	Citizen
Tinchlik	Мир	Peace
Mustaqillik	Независимость	Independence
Demokratiya	Демократия	Democracy
Davlat	Государство	Government
Tadqiq qilish	исследовать	explore
Shahs	Личность	Personality
Tadqiqot	Исследование	research
Tarix	История	history
Ma'naviat	Духовность	Spirituality
Milli munosabatlar	Национальные отношения	National contacts
Siyosiy munosabatlar	Политическое отношение	Political contact
Jamiyat	Общество	Society
Aholi	Население	Population
Din	Религия	Religion
Qonun	Закон	Legal
Uslub	Метод	method
Pedagogika	Педагогический	pedagogic
fan	Наука	science
xalk	Народ	people
G'arb	Запад	West
shartnoma	Договор	treaty
ta'sir	Влияние	influence
axborot	Информация	Information
shaxar	Город	city
munosabat	Отношения	relation
janub	юг	south
Sharq	Восток	East
asr	Век	century

savdo	Торговля	trade
odat	Обычай	tradition
O'rta Osiyo	Средняя Азия	Middle Asia
xorijiy	Иностранный	foreign
Mamlakat	Страна	countri
Davr	эпоха	Epoch
poytaxt	столица	capital
milliy	национал	national
an'ana	традиция	Tradition
o'qituvchi	преподаватель	teacher
o'qimoq	читать	study
talaba	студент	student
mavzu	тема	theme

Xulosa

XIII asr boshlarida Xorazmshoh - Anushteginiylar davlati Markaziy Osiyoda kuchli, mustaqil va madaniy jihatdan taraqqiy etgan davlat bo'lgan.

Xorazm 1040 yilda Saljuqiylar davlatiga qaram bo'lib qoladi. Saljuqiylar hukmdori Malikshoh o'z ma'murlaridan Anushteginni Xorazmga noib qilib tayinlaydi. Anushtegin vafotidan so'ng Xorazmda uning vorisi Qutbiddin Muhammad (1097–1127) noiblik qiladi.

Qutbiddin Muhammadning o'g'li Otsiz (1127–1156) davrida Xorazm mustaqil davlat sifatida ish yuritadi. Otsiz davrida Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan yerlar Xorazmshohlar davlatining xududi bo'lgan. Otsizning siyosatini uning vorislari Elarslon (1156–1172), Sultonshoh Mahmud (1172) va Takash (1172–1200) davom ettiradilar.

XII asrning ikkinchi yarmida Saljuqiylar davlati zaiflashadi, bu esa Xorazmshohlarga o'z xududidini yanada kengaytirishga imkon beradi. Otsizning nabirasi Takash davrida, 1187–1193-yillarda Nishopur, Ray va Marv shaharlarini, 1194-yilda esa Eronni Xorazmga bo'ysundiradi. U Old Osiyo va Markaziy Osiyoning katta qismini yagona davlat qilib birlashtirishga muvaffaq bo'lgan.

Takashning o'g'li Alovuddin Muhammad (1200–1220) davrida Xorazm eng katta hududni egallagan edi. U 1206-yilda Movarounnahda hukmronlik qilayotgan qoraxitoylar mag'lubiyatga uchratadi. Yettisuvgacha bo'lgan yerlar Xorazmshohlar davlati tasarrufiga o'tadi.

Muhammad Xorazmshoh davrida Xorazm Yaqin Sharqdagi eng qudratli davlatga aylanadi. Uning shimoli g'arbiy va g'arbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan janubi g'arbda Iroqqa qadar borar edi. Janubi sharqiy hududlari G'azna viloyatidan, shimoli sharqiy chegarasi esa Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o'tar edi. Sharqdagi bu ulkan davlatning poytaxti Urganch shahri edi. Hukmdor Muhammad Xorazmshoh esa «Iskandari soniy» deb ulug'langan. Uning saroyida 27 hukmdor va ularning vakillari doimo itoatda bo'lgan.

Xorazmshohlar davlati Xitoy, Tibet, Hindiston, Yaqin Sharqdagi mamlaktlar, Rus davlati, Mo'g'iliston davlatlari bilan savdo-sotiq aloqalari olib borar edi. 1218-yili Chingizxonning Muhammad Xorazmshoh huzuriga shaxsiy vakili Uhuna boshliq 500 tuyadan ortiq elchi va savdogarlar karvoni O'trorga kirib keldi. O'tror hokimi Inolchiq karvonni ushlab, elchilarni qatl ettirgan. Elchilarning o'ldirilishi Chingizxonning Xorazmshohlar davlatiga bostirib kirishga bahona bo'ldi. U 200 mingga yaqin askari bilan bostirib kirdi. U daslab O'troni (1219), Buxoro va Samarqand (1220)ni bosib oldi. 1221-yilning qishida 50 ming kishilik mo'g'ul askarlari hujum boshlab, Urganchni qamal qiladi. Urganchliklar dushmanning harbiy kuch va zirhli qurollarining ustunligiga qaramay o'z ona shahrini mudofaa qiladilar. Urganch bosqinchilar tomonidan talon-toroj qilinadi. Shaharning bosh ihota to'g'oni buzib yuboriladi. Urganchni suv bosib vayron bo'ladi. Zabt etilgan o'lka va viloyatlarni Chingizxon hali hayotlik chog'idayoq to'rt o'g'illariga taqsimlab berdi. Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahrni Chig'atoyga berdi. Bu xudud Jo'ji ulusi tarkibiga kiritildi.

Mo'g'ullarning bosqini natijasida 100 yildan ortiq vaqt davomida Markaziy Osiyo xududida xukmron bo'lgan Anushtegin-Xorazmshohlar davlati barham topdi. Bu davrda gullab yashnagan shaxarlar vayronaga aylandi. Xorazmshohlar davrida yaratilgan yuksak madaniyat toptab tashlandi. Madaniiy taraqqiyot deyarli 100 yil to'xtab qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т., 1998 .
2. Каримов И.А.Жалолиддин Мангуберди – халқимизнинг миллий қаҳрамони (тўплам). Жалолиддин Мангуберди таваллудининг 800 йиллик юбилейда сўзлаган нутқ. Асарлар – VIII жилд. –Т., 1999.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т., 2008.
4. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. Асарлар. –Т., 1996.
5. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Т., 2000
6. Абдунабиев А. Вклад в мировую цивилизацию. Ташкент.: Ўзбекистон, 1998.
7. Авлиякулов Н.Х. Замонавий ўқитиш технологиялари. Т., 2001.
8. Аъмадалиев А. М. проф., Қосимов А. Х. Инновацион фаолият ва илғор педагогик технологиялар. Т., 2006
9. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат – Т., ТДПУ, 2003
10. Ишмухамедов Р. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. Т.: ТДПУ, 2004.
- 11.Бунёдов З.Б.. Хоразмшоҳлар – Ануштакинлар давлати. –Т., 1998
- 12.Бўриев О.Б., Н.Т.Тошев. Жалолиддин Мангуберди. –Т. 1999.
13. Баёний М.Ю. Шажарайи Хоразм Шохий. –Т. 1994.
- 14.Зиёев Х.З. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. –Т., 2000
- 15.Машарипов О.. Хоразм тарихидан саҳифалар. –Т., 1994.
- 16.Машарипов О., Хоразмнома. –Т., 2007
- 17.Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. –Т., 1994
- 18.Ан-Насави Султон Жалолиддин Мангуберди. –Т., 1999
- 19.Низомулмулк. Сиёсатнома. -Т.,1997.
- 20.Хоразм тарихи.1-қисм.–Урганч, 1997.
- 21.Хоразм тарихи. 2-қисм.–Урганч, 1997.
- 22.Жабборов И.М. Антик маданият ва маънавий хазинаси. –Т., 1999.
- 23.Жабборов И.М. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. -Т., 1999.
- 24.Жалоладдин Мангуберди-ватан, юрт ҳимоячиси. / Халқаро конференция материаллари. –Урганч, 1999
- 25.Ахмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. –Т., 1994.
- 26.Жалолиддин Мангуберди. Тарихий манбалар. –Т., 1999.


- 27.Ойдин Тонари Жалолиддин Хоразмшоҳ ва унинг даври. –Т., 1999
- 28.Ртвеладзе Э.В. ва бошқалар. Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Т., “Адолат”, 2001.
- 29.Сабурова С. Хоразмшоҳлар-Ануштегинлар даврида Хоразм.-Т., 2008
- 30.Сагдуллаев А.С.. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. –Т., 2000
- 31.Саидов Ш.Ж. Жалолиддин Мангуберди давлати. –Т., 2000.
- 32.Саидов Ш. Ўрганилаётган мамлакатлар тарихи (Хоразмшоҳлар-ануштакинлар давлатининг юксалиши ва ҳалокати). –Т, 2006
- 33.Shamshiddinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. 3- kitob. – Т., 2010
- 34.www. pedagog. uz
- 35.www. Ziyonet. uz
- 36.www. edu. uz

Jaloliddin Xorazmshoh davrida davlat boshqaruvi o'ld nomlarning lug'aviy ma'nolari


1. Taxt – (fors – تحت – Rasmiy qabul va boshqa tantanali marosimlarda shoh o'tirishi uchun Saroy to'riga o'rnatilgan, maxsus bezatilgan o'rindiql).
2. Toj – (fors – تاج – SHohning hukmdorlik ramzi bo'lgan bosh kiyimi)
3. SHamsiya – (arab – شمسية – «shams» so'zidan yasalgan, taxt tepasida maxsus mulozim tomonidan turiladigan soyabon)
4. Tug' – (turk – توغ – Musulmonlarning yog'och dastaga o'rnatilgan, qutos dumi va yarmi oy yoki kerilgan besh panja tasviridan iborat bayroqsimon belgisi, bayroq)
5. O'rdu – (turk – اردو – qo'shin, lashkar, armiya)
6. Qamar – (arab – قمر – oy. Bu o'rinda oy shaklidagi davlat belgisi)
7. Sikka – (arab – سكة – 1 tanga, 2 muhr)
8. Hojib – (arab – حاجب – mulozim, eshik og'asi, g'ulom, kamergar)
9. Ustod – ud-dor – (arab – استاد الدار – soliq, ehson yig'uvchi)
10. Amiri alam – (arab – امير علم – bayroqdor)
11. Farrosh – (arab – فراش – g'ulom, shohning shaxsiy qo'riqchisi bo'lgan harbiy)
12. Faqih – (arab – فقيه – Islom qonunshunosi)
13. Mahram – (arab – محرم – xos mulozim)
14. Devon – (arab – ديوان – devonxona, davlat idorasi, mahkama)
15. Sohibi devon – (arab – صاحب ديوان – Devon ma'muri administrator)
16. Sohibi insho – (arab – صاحب انشاء – devonxona ishlarini yurituvchi, mirzaboshi)
17. Devoni istifo – (arab – ديوان استيفى – Moliya mahkamasi)
18. Devoni arz – (arab – ديوان دظر – yer ishlari mahkamasi)
19. Devoni nazar – (arab – ديوان نظر – taftish mahkamasi)
20. Omil – (arab – عامل – agent, hufiya, ishonchli vakil, soliq nazoratchisi)
21. Muhtasib – (arab – محتسب – tosh-tarozu, shariat amallarining bajarilishi nazoratchisi)
22. Mazolim – (arab – مظالم – siquv, adolatsizlik, shikoyat)
23. Aqzol-quzot (Qozoiyul-quzot) – (arab – قاض القضاة – qozilar-qozisi, qozikalon, shariat qonunlarining bajarilishini nazorat qiluvchi shaxs)
24. Xutba – (arab – خطبة – diniy ma'ruza, da'vat)
25. CHodir – (fors – چادر – chodir, o'tov)
26. Silohdor – (fors – سلاحدار – zobit yoki yaxshi qurollangan Saroy a'yoni, qurol-aslaha uchun javobgar shaxs)
27. Amiri oxur – (amir آخور – otxonalar, transport vositalari bo'yicha ma'sul)
28. Amiri shikor – (arab, fors – امير شكار – ov ishlari mas'uli)
29. Tashtdor – (fors – تاشت دار – shohning tanovuldan oldin qo'lini yuvishi uchun mo'ljallangan idishni olib yuruvchi)
30. Amiri chashnagir – (arab, fors – اكير چشنگیر – dasturxon tuzovchi, shoh taomini tatib ko'ruvchi)
31. SHarobdor – (arab, fors – شرابدار – may, sharob kabi ichimliklarni olib yuruvchi)
32. Davotdor – (arab, fors – دولت دار – hukmdor uchun qog'oz, qalam, siyoh kabi yozuv vositalarini olib yuruvchi)
33. Qissador – (fors – قصه دار – fuqarolardan tushgan arznomalarni shohga yetkazuvchi, dodhoh)
34. SHihna – (fors – شحنة – mirshabboshi)
35. Sipohdor – (fors – سپاه دار – qo'mondon, qo'shinboshi)
36. Sarhang – (fors – سرهنگ – qo'shin muddarisi)



Xorazmshohlar davlati A.Bunyodov asaridan.




Xorazmshohlar davlati va ko'shni xududlar xaritasi



Чингизхоннинг босқини



Xorazmliklarning mo'g'ullarga qarshi jangi



Jaloliddin Manguberdi



**«Jaloliddin
Manguberdi» ordeni.**